J.K.ning 31-moddasigda daxldorlikning ikki turi keltirilgan, bular:

1) oldindan va'da bermasdan xabar bermaslik (31-modda,1-k.).

2) oldindan va'da bermasdan yashirganlikdir.

Daxldorlikning jinoyat ekanligi shundan iboratki, shaxs tayyorgarlik kurilayotgan yoki sodir etilgan ogir yoki uta ogir jinoyat tugrisida anik bilgan xolda, davlat xokimiyati organlariga xabar bermaydi ya'ni, shaxs ogir yoki uta ogir jinoyat sodir etganligi yoki jinoyatga tayyorgarlik kurilayotganligi tugrisida bilgan bulishi shart.

3. Uzbekiston Respublikasining 1994-yilgi J.K. 29-moddasida 1-marta ishtirokchilikning shakllari belgilandi, bular:

1) oddiy ishtirokchilik;
2) murakkab ishtirokchilik;
3) uyushgan gurux;
4) jinoiy uyushmadir.

Ikki yoki undan ortik shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda katnashishi oddiy ishtirokchilik deb topiladi. (J.K. 29-m. 2k.)

Ishtirokchilikning ushbu shaklida jinoyatning oldindan til biriktirmay sodir etilganligi uchun ishtirokchilikning boshka shaxslarga nisbatan ijtimoiy xavfliligi kamrok. Chunki ular birgalikda xarakat kilsada, uyushganlik belgisi yuk, ammo jinoyat birgalikda kilinganligi uchun ishtirokchilikning eng soda shakliga kiritilgan. Oddiy ishtirokchilikning ijtimoiy xavfliligi shundaki, bunda jinoiy xarakat bir nechta shaxs tomonidan sodir etilganligi uchun undan etadigan zarar, shubxasiz, bir kishi etkazgan zarardan ortikdir.

Ikki yoki undan ortik shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilishida ishtirok kilishi murakkab ishtirokchilik deyiladi. (J.K. 29-m. 3k.)

Ishtirokchilikning ushbu shaklda oldindan til biriktirish, ishtirokchilar orasidagi jinoyat sodir kilishdagi kelishuvdan uning ob'ektiv tomonini bajarishgacha bulgan oralikda yuz bergan bulishi kerak. Ishtirokchilikning bu shaklida jinoyat ishtirokchilari jinoyatni amalga oshirish yuzasidan kilinadigan xarakatlar va jinoyat natijasi tugrisida uzaro kelishib oladilar. Ushbu shaklda jinoyatning ob'ektiv tomonini fakat bajaruvchi sodir kiladi, boshkalari esa unga yordam beradilar.

Ikki yoki undan ortik shaxsning birgalikda jinoiy faoliyatolib borish uchun oldindan bir guruxga birlashishi uyushgan gurux deb topiladi.

Ishtirokchilikning bu shakli avvalgi shakllaridan xavflirokdir. Uyushgan guruxning asosiy belgisi oldindan til biriktirish yoki oldindan jinoiy xarakat bilan shugullanish uchun uyushish va a'zolar orasida vazifalarning anik taksimlanishi, rejaning anikligi, texnik ta'minot va barkarorlikdadir. Aynan barkarorlik ushbu guruxni boshka guruxlardan farklab turadi. Uyushgan gurux fakat jinoyat kilish uchun tashkil etiladi.

Ishtirokchilikning eng xavfli shakli jinoiy uyushmadir.

Ikki yoki undan ortik uyushgan guruxning jinoiy faoliyat bilan shugullanish uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi. (J.K. 29-m. 5k.)

Jinoiy uyushma ishtirokchilikning boshka shakllaridan yukori darajada uyushganlik, barkarorlik, texnik ta'minoti darajasi bilan ta'minlanganligi, a'zolarining birgalikdagi keskin xarakati kabi belgilari orkali fark kiladi.

Jinoiy uyushma ancha murakkab tashkiliy tuzilmadir. Unda uyushgan guruxlar uzlariga maxsus ajratilgan vazifalarnigina bajaradi. Shu belgi jinoiy uyushmani uyushgan guruxdan ajratib turadi. Jinoyat konunida 1-marta (J.K.242-m.) jinoiy

uyushma tashkil etish, ya'ni jinoiy uyushma yoxud uning bulinmalarini tuzish yoki unga raxbarlik kilish, shuningdek, ularning mavjud bulishi va ishlab turishini ta'minlashga karatilgan faoliyat uchun javobgarlik belgilanadi va uyushma tuzilganidan boshlab jinoyat tugallangan deb xisoblanadi.

**7-Mavzu: Tamom bulmagan jinoyat**

**Reja:**

**1. Tamom bo`lmagan jinoyat tunchasi, turlari ahamiyati**
**2. Jinoyatga tayyorgarlik kurish**
**3. Jinoyatga suiqasd qilish**
**4. Tamom bo`lmagan jinoyat**
**5. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy kaytish**

Tamom bulmagan jinoyat tushunchasi, turlari, axamiyati.

Qonun chikaruvchi organ jinoyat tushunchasini berar eakn, uning asoslari sifatida jinoyat tarkibini va JK maxsus kismida nazarda tutilgan jinoyatlar tamom bo`lgan, ya'ni jinoyat sodir etilgan deb xisoblangan. Ammo xayotda ayrim sabablarga kura jinoyat xar doim xam oxiriga etkazilmay, tuxtatiladi. Masalan, shaxs giyoxvand vositani sotish maksadida olgan, lekin sotishga ulgurmay kulga olingan. Yoki shaxs odam uldirish maksadida kurol sotib olgan, ammo kulga tushgan, shaxs odam uldirish maksadida miltikdan otgan, lekin uk nishonga tegmay jabrlanuvchi tirik kolgan va xokazolar.

Shularni e'tiborga olib jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat boskinchilari instituti ishlab chikilgan va bu institut JK ning 25 – moddasida uz ifodasini topgan. Jinoyat boskinchilari deganda, ob'ektiv tomonni amalga oshirishning jinoiy maksadini amalga oshirishda uning ob'ektiv tomomnining rivojlanishi boskichlari tushuniladi. Jinoyat bokichlarini u yoki bu kilmishni sodir etgan shaxsning kilmishi kaysi boskichda tuxtatilganligiga karab, 1) jinoyatga tayyorgarlik kurish 2) suikasd qilish 3) tamom bo`lgan jinoyat deb kvalifikatsiya qilish xamda jazo tayinlashda muximdir. Uning axamiyati quyidagilarda ifodalanadi: birinchidan, jinoyat boskichlarini aniklash jinoiy kilmishning jinoiy bulmagan kilmishdan farkini aniklashda; ikkinchidan, jinoyatning xar bir boskinchining ijtimoiy xavfliligini turli darajadaligi, jinoiy xarakat bokinchilari uning oxiriga etkazilishiga yakinlashgan sari ijtimoiy xavfliligi xam ortib borishdadir.

Uzbekiston Respublikasi JK ning 25 – moddasida kasddan sodir etiladigan jinoyatlar uchta boskichdan iborat ekanligi kursatilgan. Bular:

1. jinoyatga tayyorgarlik kurish
2. jinoyatga suikasd qilish
3. tamom bo`lgan jinoyatdir.

Jinoyatga tayyorgarlik kurish jinoyat sodir etishga kasddan shart – sharoit yaratuvchi xarakatlardan iborat bo`lib, jinoyat kanchalik ogir va murakkab bulsa, unga shunchalik puxta tayyorgarlik kurilishi talab kilinadi.

Jinoyatga suikasd qilish – niyat kilingan jinoyatning sodir etishning ob'ektiv tomoni boshlanishi boskichidir. Jinoyatga tayyorgarlik kuri shva suikasd qilish tamom bulmagan jinoyat, ya'ni dastlabki jinoiy faoliyat deb aytiladi.

Jinoyat qonuni jinoyat sodir etish tugrisidagi fikrni jinoyat boskichlariga kiritmaydi va jinoyat xisoblamaydi. Jinoyat sodir qilish tugriisdagifikr suz, yuz mimikalari, kul xarakatlari orkali bildirilishi mumkin. Jinoyat sodir qilish tugrisidagi uy – fikr ijtimoiy xavfli emas. Chunki u qonun bilan kuriklanadigan

ijtimoiy munosabatga tajovuz qilish xali boshlanmagan kilmishing ob'ektiv tomonining belgilari yuk.

Jinoyat sodir etish tugrisidagi fikrni ogir jinoyat sodir etish bilan kurkitishga aralashtirib yubormaslik kerak. Bunday kurkitishlar tamom bo`lgan jinoyat xisoblanadi. Chunki bunday xollarda faqat jinoyat sodir etish tugrisidagi fikrning uzigina bulmasdan kurkitish xarakatlarida jinoyat tarkibining barcha tomonlari yuz beradi. Tamom bulmagan jinoyatlar sub'ektiv tomondan faqat kasddan kilinadigan jinoyatlardagina buladi. Chunki jinoyatlarga tayyorgarlik kuri shva suikasd kili shorkali faqat kasddan sodir etiladigan jinoyatlarda buladi.

2. Jinoyatga tayyorgarlik kurish.

Uzbekiston Respublikasi JK ning 25 – moddasi birinchi kismida jinoyatga tayyorgarlik kurish tushunchasi berilgan bo`lib, «shaxsning kasddan kilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirishi uchun shart – sharoit yaratuvchi kilmishi uziga boglik bulmagan xolatlarga kura sodir etilishi boshlangunga kadar tuxtatilgan bulsa, bunday kilmish jinoyatga tayyorgarlik kurish deb topiladi».

Tayyorgarlikka berilgan bu tushuncha maxsus jinoyat huquqiy tushunchadir. Jinoyatga ttayyorgarlik kurish jinoyatni sodir etishni osonlashtirishi maksadida tayyorgarlik kurish xarakatlaridan iboratdir. Bunday xarakatlar jinoyat sodir etish vositalarini va kurollarini tayyorlash, sheriklar kidirib topish, jinoyat sodir qilish xakida ishtirokchilarining kelishib olishi va xokazolar jinoyatni amalga oshirish uchun kasddan sharoit yaratishdan iborat.

Jinoyat sodir qilish niyati borligida shaxs jinoyatni sodir qilish uchun xam Biron bir xarakat kilmagan bulsa, jinoyatga tayyorgarlik kurishda uni sodir etish uchun sharoit yaratuvchi anik xarakatlarni bajarib kuyishdan iboratdir. Masalan, shaxs firibgarlik jinoyatni sodir qilish uchun tegishli soxta xujjatlarni tayyorlab kuyadi.

Jinoyatga tayyorgarlik kurish anik xarakatlar qilishdan iborat bo`lib, jinoyat sodir qilish vositasi yoki kurolni tayyorlashdir. Masalan, yashash uylariga kirib ugrilik qilish uchun kalit yoki boshkacha moslama yasash. Moslama bu niyat kilingan jinoyatni muvaffakiyatli amalga oshirishni ta'minlash uchun turli predmetlarni shu maksadda foydalanish mumkin bo`lgan xolatga keltirilganligidir. Shuningdek, xar kanday yul bilan jinoyat sodir qilish kuroli va vositalarini olish, jinoyat sodir qilish uchun sheriklar kidirib, ular bilan kelishib olish kabilar tayyorgarlik kurish deb topiladi. Jinoyatga tayyorgarlik kurish xarakatlari turli bo`lib, kasddan jinoyat sodir etish uchun sharoit yaratishdan iborat. Bularga masalan, jinoyat sodir etish uchun tashkiliy gurux tuzishdir. JK maxsus kismining ayrim moddalarida nazarda tutilgan jinoyat, tayyorgarlik kurish boskichidayok tamom bo`lgan jinoyat tarkibini tashkil kiladi.

Jinoyatga iayyorgarlik kurish quyidagi belgilari bilan ifodalanadi:

A) tayyorgarlik kurish xarakatlari;

B) tugri kasddan sodir kilinadigan jinoyatlarda jinoyat bogskichlari buladi;

V) sodir etiladigan jinoyatning jinoyat tarkibi aloxida tarkibga ega ekanligi;

G) jinoyatga tayyorgarlik kurish boskichida aybdorga boglik bulmagan xolatlarga kura tuxtatilganligi. Jinoyatga tayyorgarlik kurishning ob'ektiv tomonining xususiyati shundaki, jinoyat aybdorga boglik bulmagan sabablarga

kura oxiriga etazilmaydi. (JK ning 25 – moddasi 1 - kism). Jinoyatga tayyorgarlik kurish tamom bo`lgan jinoyatning mustakil jinoyat tarkibini tashkil kilmasligi kerak. Masalan, shaxs boskinchilik qilish maksadida gayriqonuniy ravishda kurolni egallasa kurolni gayriqonuniy egallashning tamom bo`lgan mustakil jinoyat tarkibini tashkil kiladi. Boskinchilik qilish maksadida kurolni egallash esa boskinchilik jinoyatga tayyorgarlik kurish deb kvalifikatsiya kilinadi.

Agar sjinoiy kilmish oxiriga etkazilgan bulsa, jinoyatni kvalifikatsiya qilishda uning Amaliy axamiyati yuk. Amaliy axamiyati jinoyat tayyorgarlik kurish boskichidayok tuxtatilganda yakkol namoyon buladi. Bunday xolda kilmish aybdorning uziga boglik bulmagan xolda tuxtatilishi kerak.

Jinoyatga tayyorgarlik kurganlik uchun jazo tayinlashda sud jazo tayinlashning umumiy asoslariga asoslanadi va xech kanday okibat kelib chikmaganligini e'tiborga olib jazo tayinlaydi.

3. Jinoyatga suikasd qilish

Uzbekiston Respublikasi jinoyat kodesining 25-moddasi 2-kismida belgilanishicha, kasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga boglik bulmagan xolatlarga kura oxiriga etkazilmagan bulsa, jinoyat sodir etishga suikasd qilish deb topiladi.

Sud amaliyotida jinoyatga suikasd qilishning turli – tuman xodisalariga duch kelinadi. Masalan, ugri ugrilik qilish maksadmda uy – joyga kiradi, ammo kulga olinadi. Kotil odam uldirish maksadida uk - otar kuroldan otadi, ammo uk tegmaydi yoki jabrlanuvchi ulmay koladi. Pora beruvchi mansabdor shaxsga pora predmetigni bermokchi buladi, ammo mansabdor shaxsv olmaydi. Bularning barchasi jinoyat qilishga suikasd qilish xisoblanadi. Jinoyatga tayyorgarlik kurish kabi suikasd qilish xam ob'ektiv va sub'ektiv belgilarga ega. Bu belgilar jinoyatga suikasd qilishga tayyorgarlik kurish va tamom bo`lgan jinoyatdan farkini kursatib turadi.

Agar jinoyatga tayyorgarlik kurish faqat niyat kilingan jinoyat sodir etishga sharoit yaratsa, jinoyatga suikasd qilish esa mavjud qilish ob'ektiga anik zarar etkazish xavfini keltirib chikaradi. Shunga kura jinoyatga suikasd qilish ob'ektiv tomondan quyidagi xolatlarda ifodalanadi:

1) suikasd qilishda sub'ekt tajovuz qilish ob'ektiga bevosita ta'sir kiladi. Masalan, sub'ekt jabrlanuvchini uldirish maksadida pichok uradi, ammo jabrlanuvchi ulmay koladi. Bunday xolda jabrlanuvchining xayoti anik xavf ostida koladi;

2) suikasd qilishda uz xarakatini bevosita jinoyatni amalga oshirishga karatadi. Bunda niyat kilingan jinoyatning ob'ektiv tomonini ifodalovchi xaraktlar boshlanadi yoki davom etadi. Ugri uyga kirish uchun eshikni sindiradi, lekin kulga tushadi. Ammo eshikni sindirib uyga kirishi ugrilik jinoyati ob'ektiv tomonining bir kismini amalga oshirishdir.

Jinoyatga suikasd qilishning tayyorgarlik kurishdan farkini aniklash uchun sodir etilgan xarakatlar niyat kilingan jinoyatni amalga oshirishning ob'ektiv tomonining bir kismini tashkil kiladimi yoki yukmi degan masala aniklanadi.

Ayrim xollarda bir xil xarakatlar jinoiy tajovuzning xarakteriga karab yo jinoyatga tayyorgarlik kurish yoki suikasd bulishi mumkin. Masalan, ugrilik qilish maksadida uy – joyga kirish, ugrilik jinoyati uchun suikasd qilish deb xisoblansa, odam uldirish maksadida yashash xonasiga kirsa, odam uldirishga tayyorgarlik xisoblanadi. Birinchi xolda shaxs ugrilik jinoyati ob'ektiv tomonining xarakatlarini bajarmokda, ikkinchi xolda esa odam uldirish maksadida uy joyga kirish odam uldirish jinoyatining ob'ektiv tomonin tashkil etmaydi. Shunga kura odam uldirish maksadida uyga kirish, odam uldirishga tayyorgarlik deb kvalifikatsiya kilinadi. Jinoyatga suikasd qilishning tamom bo`lgan jinoyatdan farki xam jinoyatga suikasd qilishdan jinoyat aybdorga boglik bulmagan sabablarga kura oxiriga etkazilmaydi. Jinoiy kilmishning oxiriga etkazilmaganligi suikasd qilishning oxiriga etkazilgan jinoyatdan farklovchi mezoni xisoblanadi. Jinoiy kilmishning oxiriga etkazilgan yoki etkazilmaganligi usha jinoyat ob'ektiv tomonining maxsus xusuiyatlariga karab aniklanadi. Moddiy jinoyatlarda jinoyatga suikasd kilinganda JK maxsus kismining muayyan moddasida nazarda tutilgan jinoiy okibat kelib chikmaydi. Masalan, ugrilik, talonchilik jinoyatlarida mulk aybdorning ixtiyoriga utmaguncha jinoyat tamom bulmagan xisoblanadi. Odam uldirish jinoyatda ulim yuz bermasa, jinoyat tamom bulmagan deb xisoblanadi va x.k. ammo jinoyatga suikasd qilishda xech kanday kelib chikmasligi kerak, deb tushunmaslik lozim. Bunda aybdor xoxlagan jinoiy okibat yuz bermagan bulishi mumkin. Masalan, aybdor jabrlanuvchini uldirish maksadidakukragiga pichok sanchadi va bu bilan badanga ogir shikast etkazildi. Jabrlanuvchining xayoti saklab kolindi. Bu erda jabrlanuvchining badaniga ogir shakast etkazilgan bulsada, kilmish odam uldirishga suikasd qilish deb kvalifikatsiya kilinadi.

Formal tarkibli jinoyatlarda jinoyatga suikasd kilganda moddiy ma'nodagi zarar kelib chikmaydi. Masalan, nomusga tegish jinoyatiga suikasd kilinganda jabrlanuvchining sogligiga zarar etkazilmaydi.

Aybdorning uziga boglik bulmagan sabablariga kura jinoyat oxiriga etkazilmagan bulsa, jinoyat huquqi nazariyasida ob'ektiv sabablarga kura jinoyat oxiriga etkazilmagan deyiladi. Masalan, ugri eshik kulfini buzib uyga kirmokchi bo`lib turganda egasi yoki boshka birov kelib koladi va jinoyat tuxtatiladi.

Moddiy jinoyatlarda jinoyatlarga suikasd qilish xarakat yoki xarkatsizlikdan sodir etilishi mumkin. Masalan, bolasining ochlikdan ulishini istab onaning emizmasligi, xarakatsizlikdan sodir etilgan jinoyatdir.

Formal tarkibli jinoyatlarda xam jinoyat boskichlari bulishi mumkin. Bunday xolda xam jinoyat ob'ektiv tomonini tashkil kiluvchi xaraktlarning barchasi kilinmaydi. Jinoyat ob'ektiv yo sub'ektiv sabablarga kura oxiriga etkazilmaydi.

Xarkatsizlikdan sodir etiladigan jinoyatlarda jinoiy kilmish boshlanguncha kilingan xarakatlar jinoyat huquqiy axamiyatga ega bulmaydi. Bunda jinoiy xarakatsizlikning uzi tamom bo`lgan jinoyat xisoblanadi. Masalan, xavf ostida koldirish (117 – modda); sud karorini bajarmaslik (232 – modda ) va x.k.

Ayrim jinoyatlarda jinoyatga suikasd qilishning uzini qonunda tamom bo`lgan jinoyat deb xisoblangan. Bunda ijtimoiy xavfli okibat kelib chikishi xavfi yuz berishining uzi tamom bo`lgan jinoyat deb xisoblangan. Maksalan, tovlamachilik (165 - modda).

Jinoyatga suikasd qilishning ayb shakli kasddan sodir etiladi. Jinoyat huquqi nazariyasida va amaliyotda faqat tugri kasddan sodir etiladigan jinoyatdagina jinoyat boskichlari buladi, deb xisoblanadi. Chunki faqat muayan maksad bilan sodir etiladigan jinoyatlarda jinoyat boskichlari buladi. Sodir etishni xoxolamagan jinoyatga shaxs suikasd kila olmaydi.

Moddiy tarkibli jinoyatda shaxs jinoyat sodir etishga suikasd kilar ekan, kilmishining ijtimoiy xavfliligini anglaydi, ijtimoiy xavfli okibat kelib chikishini xoxlaydi. Formal tarkibli jinoyatlarda shaxs sodir kilayotgan xarkatning ijtimoiy xavfli ekanligini anglaydi va uni sodir qilishni xoxlaydi.

Jinoyat huquqi nazariyasida va sud amaliyotida suikasd qilish 1) tamom bulmagan suikasd 2) tamom bo`lgan suikasdga bulinadi.

Tamom bulmagan suikasddda aybdor uziga boglik bo`lgan barcha xarakatlarni qilishga ulgurmaydi, ya'ni aybdorning uziga boglik bulmagan sabablarga kura jinoyat oxiriga etkazilmaydi. Masalan, seyfni ochish uchun kalit yasaydi, ammo bu kalit bilan seyf ochilmaydi. Yana bir misol. Ugri ugrilik qilish uchun seyfni buzib ochadi, lekin seyfda pul bulmaydi. Suikasd qilishning bunday turida aybdor tomonidan suikasd kilinganda ob'ektga zarar etkazilmaydi. Shuning uchun yaroksiz ob'ektga tajovuz qilishni jinoyatga suikasd qilish deb karalishi va javobgarlik bunday jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilovchi qonun normasida belgilangan umumiy tartibda xal kilinadi. Tamom bo`lgan suikasdda jinoiy maksadga erishish uchun aybdor uziga boglik bo`lgan barcha xarakatlarni kiladi, ammo uning uziga boglik bulmagan sabablarga kura jinoyat oxiriga etkazilmaydi. Masalan, ugri uy joyga kirib ugrilik kilayotganda egasi kelib koladi. Odam uldirish maksadida UK otganda, birov kelib miltikning stvolini boshka tomonga burib yuboradi va x.k.

Tamom bulmagan va tamom bo`lgan suikasdning jinoyatni kvalifikatsiya qilishda xech kanday axamiyati yuk, ammo jinoiy kilmishning kay darajada bajarilganligini, aybdorning jinoiy faoliyatini amalga oshirishda jinoiy kilmishning usullarini, jinoyat qilish yullarni kay darajada uzlashtirib olganligini, jinoyat kuroli va vositalaridan foydalanish maxorati kanday ekanligini aniklashda, shuningdek jazo tayinlashda muximdir. Chunki tamom bo`lgan suikasdda shaxs uziga bogli kbo`lgan barcha xaraktlarni kiladi, ammo ob'ektiv sabalarga kura jinoiy okibat kelib chikmaydi.

Tamom bulmagan suikasdda aybdor uziga boglik bo`lgan barcha xarkatlarni qilishga ulgurmagan. Demak, shaxs jinoyat qilishsirlarini mukammal egallab olishga ulgurmagan. Shunga kura tamom byuulgan suikasdning tamom bulmagan suikasdga nisbatan ijtimoiy xavfliligi yukorirokdir.

Jinoyat huquqi nazariyasida yaroksiz tajovuz qilish tugrisidagi fikrlar xam ilgari surilgan. Yaroksiz tajovuz qilishning ikkita turi mavjud. Bular: 1) yaroksiz ob'ektga tajovuz qilish; 2) yaroksiz vositalar bilan tajovuz qilishdir.

Yaroksi ob'ektga tajovuz qilishda sub'ekt uz xarakatini muayyan ob'ektga tajovuz qilishga yunaltiradi, ammo uning uz xatosiga kura tajovuz kilgan ob'ektga xech kanday zarar etkazilmaydi. Masalan, shaxs birovni uldirish maksadida u uxlab yotibdi deb uylab pichok uradi, ammo jabrlanuvchi boshka bir sabab tufayli oldinrok ulgan buladi va aybdor ulik murdaga pichok sanchganini bilmaydi.

Jinoyat huquqi nazariyasida bunday yaroksiz suikasd qilishni mavjud bulmagan ob'ektga tajovuz qilish xam deyiladi.

4. Tamom bo`lgan jinoyat

Sodir etilgan kilmishda JK maxsus kismining muayyan moddasida nazarda tutilgan jinoyatning jinoyat tarkibi barcha tomonlari va belgilarining yuz berishi tamom ulgan jinoyat deb topiladi.

Xar bir aloxida jinoyatni kachon tamom bo`lgan deb xisoblash masalasi uayyan jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi moddaning tuzilishiga boglik. Jinoyatning tamom bo`lganligi masalasi uning ob'ektiv tomoni kanday darajada bajarilganligi bilan boglik. Bunda jinoyat moddiy yoki formal ekanligidir.

Moddiy jinoyatlarda jinoyatni tamom bo`lgan deb xisoblash uchun qonunda nazarda tutilgan moddiy ma'nodagi jinoiy okibat kelib chikkan bulishi kerak. Jumladan, odam uldirish boshka shaxs xayotdan maxrum kilinganidan, ugrilik yoki talonchilikda aybdor tomonidan uzganing mulkini egallab olingandan keyin tamom bo`lgan deb xisoblanadi. Formal tarkibli jinoyatlardan jinoyat qonunida nazarda tutilgan xarkatlar Tula bajarilishi bilan jinoyat tamom bo`lgan deb xisoblanadi. Masalan, ayolni jinsiy aloka qilishga majbur etish – xizmat, moddiy yoki boshka jixatlardan aybdorga karam bo`lgan ayolni jinsiy aloka qilishga yoki jinsiy extiyojni gayritabiiy usulda kondirishga majburlash (JK 121 - moddasi). Ushbu jinoyatda jabrlanuvchini jinsiy aloka qilishga yoki jinsiy extiyojni gayritabiiy usulda kondirishga majbur qilishning uzi tamom bo`lgan jinoyat xisoblanib, majbur qilishning uzida Ushbu jinoyatda jinoyat tarkibining barcha belgilari bor.

Ayrim xollarda qonun chikaruvchi organ u yoki bu xarkatning jamiyat uchun xavfliligini va bunday jinoyatlar okibati kelib chikishining oldini olish maksadida ularning tamom bulish vaktini jinoiy faoliyatning bu boskichi jinoyatga tayyorgarlik kurish yoki suikasd qilish deb xisoblansa, bu normada tamom bo`lgan jinoyat deb xisoblangan. Masalan, ugrilik jinoyatini sodir qilish uchun ikki yoki undan ortik shaxslarning oldindan til biriktirib, jabrlanuvchining yakin kishisiga zurlik ishlatish bilan kurkitish, mulkni berishning talab qilishni uzi tamom bo`lgan tovlamachilik deb kvalifikatsiya kilinadi.

JK ning kupgina moddalrida jinoyatga suikasd qilish boskichida tamom bo`lgan jinoyat deb xisoblangan. Masalan, boskinchilik (164 - modda); tovlamachilik (165 - modda) va xokazolar. JK ning 242 – moddasida esa jinoiy uyushma tuzishning uzi tamom bo`lgan jinoyat deb xisoblangan. Jinoyat huquqida bunday jinoyatlarni kesik tarkibili jinoyatlar deyiladi.

5. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy kaytish

Jinoiy faoliyatni boshlagan shaxsda xal jinoyatni oxiriga etkazmasdan uni tuxtatish imkoniyatini oxiriga etkazmasdan uni tuxtatish imkoniyatini berib va bunday xolda jinoiy javobgarlikka tlorilmaslik va jazolanmaslikni belgilab, qonun chikaruvchi organ ma'lum darajada jinoiy okibatlar oldini olishni maksad kilgan bulsa, ikkinchi tomondan jinoyat qonunining insonparvarlik printsipidir.

JK ning 26 – moddasida belgilanishicha, shaxs jinoyatga tayyorgarlik kurish xarkatlarini yoki jinoyat sodir etishga bevosita karatilgan xarkatlarini oxiriga etkazish mumkinligini anglagan xolda tuxtatsa, shuningdek jinoiy okibat kelib

chikishi mumkinligini anglagan xolda shunday okibat kelib chikishining oldini olsa jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy kaytish deyiladi.

M sodir etishdan ixtiyoriy kaytishning qonundagi mazmuni, jinoyat huquqi nazariyasi va sud amaliyotida kullanilishini e'tiborga olib uni:

- jinoyatdan uz ixtiyori bilan kaytganligi;
- jinoyatdan kaytganligining kat'iy bulish belgilari bilan ifodalash mumkin.

Shaxs jinoyatni oxiriga etkazish uchun Tula imkoniyati borligini anglagan xolda jinsiy faoliyatini tuxtatgan bulishi kerak. Agar jinoyatni oxiriga etkazilmaganlik aybdorning uziga boglik bulmagan sabablarga kura tuxtatilgan va jinoiy faoliyatini davom ettirish xavfi bulsa ixtiyoriy kaytish deb xisoblanmaydi. Chunki u uziga boglik bulmagan sabablarga kura jinoiy faoliyatini tuxtatgan. Masalan, aybdor seyfning kulfi murakkab bo`lganligi uchun ocholmagan.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy kaytish kat'iy bulishi kerak, deganda, shaxsning jinoiy faoliyatni vaktincha tuxtatganligi emas, balki oxiriga etkazish uchun Tula imkoniyatlar borligini anglagan xolda jiniy faoliyatni davom ettirshdan butunlay voz kechganligi tushuniladi. Shuningdek, birinchi xarakati tufayli maksadiga erisha olmagan va jinoiy xarakatni takrorlamaslik xam ixtiyoriy kaytish xisoblanmaydi. Masalan, shaxs birovni uldirish maksadida jabrlaenuvchiga karata UK uzadi, ammo jabrlanuvchi ulmay koladi, aybdor esa ikkinchi mata UK uzmaydi. Bunday xolda kilmish umumiy asoslarda kasddan odam uldirishga suikasd qilish deb xisoblanadi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy kaytish faqat tamom bulmagan suikasdda buladi. Chunki bunda shaxsning xam jinoiy faoliyatini tuxtatish uchun vakt bor va shaxs jinoyatni oxiriga etkazish uchun barcha xarkatlarni qilishga ulgurmagan buladi. Tamom bo`lgan suikasdda esa shaxs jinoyatnm oxiriga etkazish uchun barcha xarkatlarni kiladi va endi uning uziga boglik bo`lgan sabablarga kura Mni tuxtatishga vakt kolmaydi. Tamom bo`lgan suikasdda kilmish va okibat urtasidagi vakt mobaynida shaxs uz xarkatlarini nazorat qilish va boshkarish imkoniyatiga ega buladi. Shuning uchun shaxs uz xarakatining rivojlanashiga ta'sir kila oladi. Masalan, mulkni nobud qilish maksadida unga ut kuygan shaxsda olovni darxol uchirish imkoniyati bor. Demak, mulkka ut kuygan shaxs, uz ixtiyori bilan mulk nobud bulmasdan utni uchirsa, ixtiyoriy kaytish deb xisoblanishi mumkin.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy kaytishning motivi turlicha bulishi mumkin. Maksalan, kilmishiga pushaymon bulish, jabrlanuvchiga raxm qilish, uz boshiga musibat tushib kolishidan kurkishi va xokazolar. Motivi kanday bulmasin shaxs uz xoxishi bilan mdan kaytgan bulsa, jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Ammo fosh bulishidan kurkib jinoyatni tuxtatgan bulsa, ixtiyoriy kaytish xisoblanmaydi.

Jinoyatdan ixtiyoriy kaytishda, atsbdorga barcha sharoit mavjud bulishiga karamasdan uni oxiriga etkazmaydi, aybdor uz kilmishiga chin kungildan bulishda esa jinoyat oxiriga etkazilgan bulishi mumkin.

**8- Mavzu: Bir kancha jinoyat sodir etish.**

**Reja:**

**Bir kancha jinoyat kilish tushunchasi, shakllari va turlari.**
**Takroran jinoyat sodir etish tushunchasi.**
**Jinoyatlar majmui tushunchasi.**
**Retsidiv jinoyat.**

1. Sudlarning jazo tayinlash faoliyatini urganish shuni kursatadiki, kurilayotgan jinoyat ishlarining kupchilik kismi yoki takroran yoki xar xil jinoyat turli vaktda sodir kilingan yoxud jinoyat retsidivist tomonidan sodir kilinmagan. Ana shu jinoyatlarni tugri kvalifikatsiya kilish va jazo tayinlashda xukukni amalda tadbik kiluvchi organlar xodimlarining xukukiy madaniyati goyat muxim axamiyatga egadir.

Uzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Umumiy kismiga «Bir kancha jinoyatlar sodir etish» tushunchasining kiritilishi munosabati bilan jinoyat xukukida bir kator yangi muammolar kelib chikadiki, bir kancha jinoyatlar sodir kilish mazmuni ochib bermasdan turib jazo tayinlashning mazmunini ochib beri shva tushunish mumkin bulmaydi.

Bir kancha jinoyatlar ustida gap ketar ekan, avvalo J.K.ning Maxsus kismining bitta moddasi bilan kvalifikatsiya kilinadigan aloxida bitta jinoyat deb xisoblanadigan jinoyatlarni xam tushunib olish kerak buladi. Odatda aybdorning bitta xarakati bilan ob'ektga tajovuz kilingan bulsa, kilmishini kvalifikatsiya kilishda muammo tugilmaydi. Ammo kilishi murakkab tarkibli jinoyatdan iborat bulsa, kvalifikatsiya kanday buladi, dngan savol tugiladi. B.M. Leontev: «Murakkab tarkibli jinoyatlar alternativ xarakatli jinoyatlar, ikkita xarakatlardan iborat bulgan jinoyatlar uzokka chuzilgan jinoyatlar, davomli jinoyatlar, kushimcha ogir okibatlar keltirib chikaradigan jinoyatlar bitta jinoyatdan iborat buladi» dnb yozadi. 1959 yili kabul kilingan Uzbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi Umummiy kismida murakkab aybli jinoyatlar tushunchasi berilmagan edi. Ammo Jinoyat xukukida aybning aralash shaklli tushunchasi berilgan edi. Amaldagi jinoyat kodeksida (23-modda) murakkab aybli jinoyatlar tushunchasi berildi. Agar shaxsning kasddan jinoyat sodir etilishi natijasida extiyotsizlik orkasida boshka ijtimoiy xavfli okibatlar yuz bergan va shunday kilmishni konun kattikrok javobgarlik bilan boglangan bulsa, bunday jinoyat kasddan sodir etilgan deb xisoblanadi. Bunday kilmishlarga, masalan, J.K. 104-moddasi 3 kismining «d» bandi (kasddan badanga ogir shikast etkazish jabrlanuvchining ulishiga sabab bulsa), 114-moddasi uning kismining «a» va «b» bandlarini (jinoiy ravishda xomila tushirish (abort) jabrlanuvchining ulimiga yoki boshkacha ogir okibatlarga sabab bulsa) keltirish mumkin.

Jinoyat kodeksi Maxsus kismining kupgina moddalarida shunday kilish uchun oldin ma'muriy javobgarlikka tortilib, Yana shunday kilmish sodir kilinsa, jinoyat xisoblanishi xakida kursatilgan. Masalan: J.K.ning 188-moddasiga kura savdo yoki vositachilik faoliyati bilan konunga xilof ravishda shugullanish shunday xarakatlar uchun ma'muriy javobgarlik kullanilgandan keyin sodir etilgan bulsa, jinoyat xisoblanadi.

Bir kancha jinoyat sodir etish-bitta shaxsning sodir etgan kilmishlari uchun ilgari jinoiy javobgarlikka yoki jazoga tortilgan yoxud tortilmaganidan kat'iy nazar, bir kancha jinoyatlar sodir etishdan iborat ijtimoiy xodisani ifodalovchi umumlashtiruvchi jinoiy-xukukiy tushunchadir.

Bir kancha jinoyat sodir etish jinoiy – xukukiy xodisa sifatida uni ifodalovchi bir kator yuridik alomatlarga ega.

Ularga kuyidagilar kiradi:

Bir shaxsning ikki yoki undan ortik jinoyatlarni sodir etishi.

Turli vaktlarda jinoyatlar sodir etishi.

Sodir etilgan kilmishlarning xar biri jinoiy – xukukiy okibatlar keltirib chikarishi.

Amaldagi jinoyat konuniga asosan bir kancha jinoyat sodir etish deb Jinoyat Kodeksi Maxsus kismining bitta moddasi yoki bitta moddasining bitta kismida yoki turli kismida yoxud turli

moddalarida jinoyatlarni nazarda tutilgan jinoyatlarni turli vaktlarda sodir etib, ulardan birontasi uchun xali

sudlanmaganlik muddati utmasdan yangi jinoyat sodir kilishga aytiladi.

164-modda 97-moddani 2 kismi «i» bandi; Boskinchilik jinoyatida odam uldirilsa, bir kancha jinoyat sodir etish buladi.

M: Sobirov mast xolda uyga kelib janjal kiladi va xomilador xotinini uradi, natijada xotinini xomilasi tushadi. Oradan kup vakt utmay yana spirtli ichimlik iste'mol kilib kuchada tupalon kiladi va xamtovoklaridan B ning badaniga ogir shikast etkazadi. Sud Sobirovning kilmishini J.K.ning 104 moddasini 3 kismi «b» bandi bilan badanga shikast etkazish takroran kilingan deb kvalifikatsiya kilib jazo tayinlanadi. Bu konuniy.

2. Jinoyat konunida bir kancha jinoyat sodir etishning 3 ta shakli ajratilgan:

Takroran jinoyat sodir etish. 32 modda.

Jinoyatlar majmui. 33 modda.

3) Retsidiv jinoyat. 34 modda.

Jinoyat Kodeksining 32 moddasida takroran jinoyat sodir etish bayon etilgan bulib unda ikki yoki bir nechta jinoyatni shaxs turli vaktlarda sodir etgan, ammo ularni birontasi uchun xam sudlangan bulmasa, takroran jinoyat sodir etish deb topiladi. Tamom bulgan jinoyat xam, jazoga sazovar bulgan jinoyatga tayyorgarlik kurish yoki jinoyat sodir etishga suikasd kilish xam, shuningdek ishtirokchilikda jinoyat sodir etish xam takroran jinoyat sodir etish deb topiladi.

Uzbekiston Respublikasining yangi jinoyat kodeksida takroran jinoyat sodir kilish tushunchasi yangicha mazmunda berilib, oldingi tushunchadan yuridik mazmuni jixatidan fark kiladi. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, jinoyat

kodeksining Umumiy kismida takroran, jinoyat sodir kilishtushunchasining berilishi kata axamiyatga ega bulib, J.K. maxsus kismining barcha moddalari uchun yagona bulgan takroran jinoyat sodir kilish tushunchasi berildi. Jinoyatni takroran sodir kilingan deb xisoblash uchun kuyidagi shartlar bulishi talab kilinadi:

a) oldin sodir etilgan jinoyat bilan keyin sodir kilingan jinoyat bir-biriga aynan uxshash bulib, kvalifikatsiya kilish uchun zaruriy xisoblangan belgilari xam bir xil bulishi, ya'ni aynan

1ta yoki 1ta moddaning 1ta kismida javobgarlik belgilangan bulishi kerak. M: shaxs oldin 169- moddaning 1- kismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir kilgan va keyingi jinoyati xam 169-moddaning 1-kismida kursatilgan jinoyat bulishi kerak. Ammo keyingi jinoyatni tkroran sodir kilingan deb xisoblab, 169-moddaning 3-kismi «a» bandi bilan kvalifikatsiya kilib jazo 169-moddaning 1-kismida kuzda tutilgan jinoyat bulib, keyingi jinoyati 169-moddaning 2-kismida kuzda tutilgan jinoyat bulsa, kilmish takroran kilingan deb xisoblanmaydi;

b) jinoyat takroran kilingan deb xisoblanishi uchun ular turli vaktlarda sodir etilgan va mustakil jinoyat tarkibini tashkil kilishi kerak. Konun mazmuniga kura yana shuni xam nazarda tutish kerakki, agar shaxs oldin xam J.K. Maxsus kismi 1ta moddasining 1ta kismidagi alternativ xarakatlardan birini sodir kilib, keyingi xarakati xam shu moda shu kismining boshka bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir kigan takdirda xam takroran sodir kilingan deb kvalifikatsiya kilinishi kerak. Sud amaliyotda xam «takroran» tushunchasi shunday xal kilinmokda.

v) Jinoyatni takroran sodir kilingan deb xisoblashning yana bir sharti aybdorning sodir kilingan jinoyatlarning birortasi uchun xam xali sudlanmaganligidir. Shaxs yangi jinoyat sodir kilgan vaktda oldingi jinoyati uchun sudlanmaganlik masalasini xal kilish muxim axamiyatga egadir.

Agar shaxsning oldingi jinoyati uchun sudlanganlik tatibda olib tashlanmagan bulsa va shundan keyingina bir xil jinoyatni turli vaktlarda sodir kilgandagina va ularning birortasi uchun sudlangan bulmasa, jinoyat takroran sodir kilingan deb xisoblanadi.

g) Jinoyatni takroran sodir kilingan deb xisoblash uchun shaxs ikki yoki undan ortik jinoyatni to xukm e'lon kilinguncha sodir kilgan bulishi kerak. Agar shaxs takroran kilingan deb xisoblanishi mumkin bulgan jinoyatlarni sodir kilib, bu jinoyatlardan birini xukm chikarilguncha, ikkinchisini esa xukm chikarilgandan keyin aniklangan bulsa, takroran sodir kilingan
deb xisoblashga asos bormi, degan savol tugiladi. Takroran sodir kilingan jinoyatlar jazo tayinlashda sud amaliyotida xatolarga yul kuyishlar uchrab turadi.
Jinoyat Kodeksining 33 moddasida jinoyatlar majmuiga ta'rif berilgan. Bu ta'rifga kura kilmish jinoyatlar majmui tarikasida sodir etilgan deb xisoblash uchun kilmish yoki kilmishlar Jinoyat kodeksining maxsus kismining turli moddalarida yoki bitta moddaning turli kismlarida nazarda tutilgan jinoyatlardan iborat bulishi, jinoyatlarni birontasi uchun shaxs xali sudlanmagan bulishi kerak. Jinoyatlar majmui uchun jazo tayinlashning mazmunini ochib berishdan oldin jinoyatlar majmuining uzi nimaligini tushunib olish kerak buladi. Uzbekiston Respublikasining yangi jinoyat kodeksi kabul kilinishi munosabati bilan jinoyatlar

majmui tushunchasi xam uzgardi. Chunki 1994 yil 22 sentyabrda kabul kilingan Uzbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida jinoyatlar majmui jinoyatlarning ideal jami va jinoyatlarning real jamiga ajratmasdan berildi. Shuningdek takroran jinoyat majmui masalasiga yangicha yondoshishni talab kildi. J.K.ning 23-moddasida jinoyatlar majmuiga kuyidagicha tushuncha berildi. « Ushbu Kodeks Maxsus kismining turli moddalarida yoki bitta moddasining turli kismlarida nazarda tutilgan, javobgarlikka tortiladigan ikki yoki bir necha jinoiy kilmishni sodir etish, agarda ulardan birortasi uchun xam shaxs sudlangan bulmasa, jinoyatlar majmui deyiladi».

Jinoyatlar majmuining uziga xos 3 ta belgilari mavjud:

1) shaxs tomonidan ikki yoki undan kuprok jinoyatlarni sodir kilganligi;

2) sodir kilingan jinoyatlar J.K.ning kamida 2 ta moddasi bilan kvalifikatsiya kilinganligi;

3) bu jinoyatlardan birortasi uchun xam shaxs sudlanmagan bulishi kerakligi.

Yuridik adabiyotlarda jinoyatlar jami ikki turga bulib urganiladi:
jinoyatlarning real jami;
jinoyatlarning ideal jami.

Jinoyatlarning real jami xam, ideal jami xam bir kancha jinoyatlar sodir kilish tushunchasiga kiradi.

Jinoyatlarning real jami deganda, J.K. maxsus kismining turli moddalarida yoki 1ta moddasining turli kismlarida nazarda tutilgan ikki yoki bir necha jinoiy kilmishni turli vaktlarda sodir etib, agar ulardan birortasi uchun xam shaxs sudlangan bulmasa, jinoyatlarning real jami deyiladi. M: shaxs oldin ugrilik jinoyatlarini sodir kilgan bulib, jinoiy javobgarlika tortish muxlatlari utmasdan bezorilik jinoyatining sodir kilsa, jinoyatlarning real jamini tashkil kiladi.

Jinoyatlarning ideal jami deganda, J.K. maxsus kismining turli moddalarida yoki 1ta moddasining turli kismlarida nazarda tutilgan ikki yoki bir necha jinoiy kilmishni bir vaktning uzida (1ta jinoiy xarakat bilan) sodir kilishga aytiladi. M: bezorilik kilish vaktida birortasi shaxsning badaniga ogir shikast etkazilsa, bu kilmish J.K.ning 104-moddasi (badanga ogir shikast etkazish) va 277-moddasi (bezorilik) bilan jinoyatlar jami tarikasida kvalifikatsiya kilinadi. Bunday kilmish jinoyatlarning ideal jami xisoblanadi. Sobik Sovet Jinoyat xukukining namoyondalari xisoblangan ayrim olimlar jinoyatlar jamini real va ideal jamiga bulinishining unga axamiyati yuk deb xisoblaydilar. Biz bu fikrga kushila olmaymiz. Jinoyatlarning real va ideal jami sodir kilinishi vakti va yuridik okibatlari jixatlaridan bir-biridan fark kiladi.

Bu fikrlar kuyidagilarda ifodalanadi.

1) Uzbekiston Respublikasi J.K. 56-moddasining (jazoni ogirlashtiradigan xolatlar) «i» bandida kursatilishicha, ilgari
xam kasddan jinoyat sodir etgan shaxsning takroran jinoyat sodir
etishi jazoni ogirlashtiradigan xolat deb xisoblanmaydi.

2) Agar aybdorning bir xarakati bilan J.K. 2ta moddasi bilan kvalifikatsiya kilinishi lozim bulgan ijtimoiy xavfi katta bulmagan jinoyat sodir kilingan bulsa, aybdor J.K. 66- moddasiga binoan (aybdor uz kilmishiga chin kungildan pushaymon bulganligi munosabati bilan) javobgarlikdan ozod kilinishi mumkin.

Bunday jinoyatlar real jami tarikasida sodir kilingan bulsa, javobgarlikdan ozod kilishning bunday turushi mumkin bulmaydi.

Jinoyatlarning ideal jamida shaxsga nisbatan, agar bunga konunda kursatilagn asoslar mavjud bulsa, J.K.ning 71-moddasi tartibida jazodan ozod kilish kullanishi mumkin. Real jami tarikasida sodir kilingan jinoyatlarga nisbatan 71-moddani, shuningdek shartli xukm kilishni (72-modda) kullash mumkin bulmaydi. Shuningdek jinoyatlarning real jami tarikasida bir
kancha jinoyatlar kilagn shaxslarga nisbatan jinoyat konunida kuzda tutilgan boshka mtiyozlarni kullash mumkin bulmaydi.

Kilmishlarni jinoyatlarning jami deb xisoblashning muxim shartlaridan biri shaxs sodir kilingan jinoyatlarning birotasi uchun xali sudlanmagan bulishi kerakligidir. Shaxsning ikki yoki undan kuprok jinoyatlarni sodir kilganligi dnganda, J.K. Maxsus kismining kamida 2ta normasi bilan kvalifikatsiya kilinadigan jinoyatlarni tushunish kerak.

Retsidiv jinoyat sodir kilganlik uchun jazo tayinlash masalasini taxlil kilishdan oldin retsidiv jinoyatning uzi nimaligini bilib olishimiz kerak. Uzbekiston Respublikasi J.K.ning 34-moddasiga binoan «shaxsning ilgari kasddan sodir etgan jinoyat uchun sudlanganligidan keyin kasddan yangi jinoyat sodir etish retsidiv jinoyat deb topiladi».

Yuridik adabiyotlarda retsidiv jinoyat tushunchasiga olimlar xar xil tushuncha berganlar. Jumladan, I.M.Karaketov va M. Usmonalievlar oldingi kasddan kilingan jinoyati uchun sudlanganlik muddati utmasdan yoki konunda belgilangan tartibda olib tashlanmasdan kasddan yangi jinoyat sodir kilish retsidiv jinoyat sodir kilishidir, deb yozadilar. B. M. Leontev esa: «Shaxsning oldingi jinoyati uchun sudlanganlik muddati utib ketmasdan ikki yoki undan ortik jinoyatni sodir etishi retsidiv jinoyat sodir kilishdir», deb yozadi. Bu borada Y. M. Karaketov va M. Usionalievlarning retsidiv jinoyatga bergan ta'rifi Uzbekiston Respublikasining amaldagi J.K.retsidiv jinoyatga berilgan ta'rifga mos keladi.

Demak, retsidiv jinoyat sodir kilgan deb xisoblash uchun shaxs oldin J.K. maxsus kismining birota modasida kuzda tutilgan jinoyatni kasddan sodir kilib, shu jinoyat uchun xukm chikarilganidan to jazoni utab bulguncha va J.K. ning 78-moddasida kursatilgan muddatlar utmasdan yoki 79-moddada nazarda tutilgan tartibda sudlanganligi olib tashlanmasdan kasddan yangi jinoyat sodir kilsa, retsidiv jinoyatlarning kuyidagi turlari nazarda tutiladi:

1) Umumiy retsidiv jinoyat.
2) Xavfli retsidiv jinoyat.
3) Uta xavfli retsidiv jinoyat.

Agar 1995 yil 1 aprelgacha amalda bulgan J.K.da retsidiv jinoyat sodir kilishning jinoyatning kvalifikatsiya kilishda deyarli axamiyati bulsa (uta xavfli retsidiv jinoyatdan boshkasini) yangi J.K.dagi retsidiv jinoyat turlarining xar birida uziga xos jinoyat – xukukiy belgilari bor vva bu belgilar jinoyatni kvalifikatsiya kilishningzaruriy belgilari xisoblanadi va maxsus kismning moddalari shunga muvofik ravishda tuzilgan. J.K. 334-moddasi mazmuniga kura jinoyatni xavfli retsidiv jinoyat deb xisoblash uchun.

a) shaxs oldin kasddan sodir kilgan jinoyati uchun jinoiy jazo turlaridan biriga xukm kilingan bulishi;

b) sudlanganlik muddati tugamasdan yana kasddan oldingi jinoyatiga uxshash jinoyatni sodir kilgan bulishi kerak.

J.K. 34-moddasining 3-kismida uta xavfli retsidivist tushunchasi va shaxsni uta xavfli retsidivist deb xisoblashning shartlari kursatilgan. Shaxsni uta xavfli retsidivist deb topish masalasi fakat sud J.K.ning 34-moddasiga asoslangan xolda xal kiladi.

# 9- Mavzu: Jazo tushunchasi, maqsadlari va turlari

## Reja:

1. **Jinoiy jazo tushunchasi.**
2. **Jinoiy jazolar tizimi.**
3. **Jinoyat kodeksida jazo turlari.**
4. **Asosiy va qo`shimcha jazolar.**
5. **Jinoyat qonunini lebirallashtirish tushunchasi.**

**Jazo** – sud xukmi bilan jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan qo`llaniladigan va sudlanuvchini ozodlikdan maxrum qiluvchi yoki uning xuquq va erkinliklarini cheklovchi majburlov chorasidir.

«Jazo bu jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat tomonidan sud xukmi asosida qo`llaniladigan va maxkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan maxrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir» deb ta'rif berilgan.

Jinoiy jazo davlat majburlov chorasi bo`lib, u bu majburlov choralaridan quyidagi o`ziga xos xususiyatlar bilan farq qiladi.

1. Jinoiy jazo jinoyat qonunida qat'iy belgilangan bo`ladi. Jinoyat kodeksida sudlar uchun qat'iy bo`lgan jazo choralari belgilangan bo`lib, sudlar jazo tayinlashda maxsus qism normasi sangtsiyasida ko`rsatilgan doirada jazo tayinlaydilar. Sud jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga qonunda belgilangan jazonigina tayinlaydi.

Insoniyat tarixida jinoyat degan salbiy ijtimoiy xodisaga qarshi doimo keskin kurash olib bogrilgan. Bu muammo mustaqil O`zbekiston Respublikasida xam muhim vazifalardan biri bo`lib qoldi.

Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o`tish davrida jamiyatdagi barcha ziddiyatlar yuzaga keladi va huquqbuzishliklar, jinoyatni o`sishi yuzaga kelishi mumkin. Bunday xolat bozor iqtisodiyoti tizimiga o`tayotgan O`zbekiston Respublikasida ham yuz berdi.

«Qonunlarni hurmat qilish va uning talablarini bajarish har bir kishining shaxsiy e'tiqodiga aylanishi kerak. Qonunchilik va huquq tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va ma'suliyat ustuvor bo`lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo`lmaydi» deb yozgan edi I. A. Karimov. (O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li. T. 1992 yil 17 bet.)

Jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurash ishida jinoiy jazo choralaridan ham keng foydalaniladi. Jinoiy jazo davlatda jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy vositasi emas, o`tish davrida jinoyatchilikka qarshi kurashning o`tkir quroli sifatida foydalanilishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi JK ning 42 moddasida jazoga quyidagicha ta'rif berilgan. «Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud xukmi bilan qo`llaniladigan va mahkumni qonunda ko`zda tutilgan

muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir».

Jinoiy jazo davlatning boshqa majburlov chorasiga o`xshasada, aynan jinoiy jazo hisoblangan davlatning majburlov chorasining o`zigagina xos bo`lgan belgilariga ega bo`lib, bularga quyidagilar kiradi.

Jinoiy jazo davlatning majburlov chorasi sifatida faqat jinoyat qonunidagina belgilanadi. JK ning 43 moddasida jinoiy jazoning qat'iy turlari belgilangan bo`lib, shu moddada belgilangan jazodan tashqarisini jinoiy jazo sifatida qo`llash mumkin emas.

Sud jinoyat uchun jazo tayinlashda faqat aybdorning qilmishi kvalifikatsiya qilingan moddaning sanktsiyasida ko`rsatilgan jazoni, yengilroq jazo turini tayinlashda esa fakt 43 moddasida ko`rsatilgan yengilroq jazo turini tayinlaydi. Demak JK da ko`rsatilgandan boshqa birorta majburlov chorasi jinoiy jazo sifatida tayinlanishi mumkin emas.

2. Jinoiy jazo faqat sud tomonidan tayinlanadi. Bu qoida JK ning 42 moddasida xam mustaxkamlab qo`yilgan. JK ning 69 – 75 moddalarida belgilangan asoslarga kura jazodan ozod qilish, jazoni engilrogi bilan almashtirilishi xam faqat sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Amnistiya akti yoki afv eti shorkali jazodan ozod qilishda bu aktni chikargan organlarning amnistiya akti yoki afv etish tugrisidagi normativ akti asosida ozod kilinadi. Faqat sudlar jazodan ozod qilish vakolatiga ega ekanligi JK ning 12 – moddasida xam mustaxkamlangan.

Jinoiy jazo xisoblanmaydigan majburlov choralari barcha vakolatli organlari yoki vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan xam kullanishi mumkin.

3. Jinoiy jazo faqat jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbattangina kullaniladi.

Maxkum jazoning ijrosidan kochganda xam jazo maxkumning oila a'zolariga yoki yakin karindoshlariga nisbatan kullanishi mumkin emas. Aybdor shaxsga jazo kullanilishi bilan boglik bo`lgan mulkiy tulovlar uning oila a'zolari yoki uning yakin karindoshlaridan undirilmaydi.

4. Jinoiy jazoning mazmuni shaxsni ozodlikdan maxrum qilishda yoki huquq va erkinliklarni cheklashda ifodalanadi.

Shaxsiy jinoiy javobgarlikka tortish okibatida  u ozodlikdan maxrum kilinishi mumkin. Masalan: ozodlikdan maxrum kili shva kamok jazolari kullanilganda maxkum jamiyatdan ajratiladi. Muayyan huquqdan maxrum qilish jazosi kullanilganda shaxsning erkin kasb tanlash huquqi, muayyan lavozimni egallashi cheklanadi.

5. Jinoiy jazoga davlat xususiyatiga ega ekanligi – bu shundan iboratki shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish, jazo, uning anik turi va mikdorini belgilash faqat maxsus davlat organlari aloxida xokimiyat sudga taalukli bo`lib, davlatninng biror organlari yoki jamoat tashkilotlari uni kullay olmaydi.

Sud xukmi davlat nomidan chikarilib, qonuniy kuchga kirgach barcha davlat jamoat muassasalari, ishlab chikarish korxonalari va tashkilotlari, mansabdor shaxslar va fukarolar uchun majburiy bo`lib, Uzbekiston Respublikasi xududida

suzsiz ijro etilishi mumkin. Bu xammasi jazoning davlat xususiyatiga ega ekanligini ifodalaydi.

6. Sudlanganlik shaxsning faqat jinoiy jazoga tortilganligi tufayli kelib chikadi. Jazo tayinlangan xukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab shaxs sudlangan xisoblanadi. Sud tomonidan jazodan ozod kilingan shaxs sudlanmagan xisoblanadi. Sudlanganlik muddatining tugashi yoki sudlanganlikni olib tashlanishi bilan uning barcha huquqiy okibatlari bekor buladi. Sudlanganlik muddatining tugashi shartli xukm kilinganlarga nisbatan xizmat buyicha cheklash yoki intizomiy kismga junatish, kamok, ozodlikdan maxrum qilish tarzidagi jazo kullanilgan shaxslarga nisbatan vujudga keladi. Sudlanganlik shaxs jazoni utagandan sung rasmiy xujjatlar tuldirilganda sudlanganligini yozishga majbur buladi.

Ba'zi jinoyatlari uchun sudlangan shaxsning ma'lum vazifalarda yoki ayrim joylarda ishlash huquqi cheklanadi. Boshka ta'sir choralari kullanilganda (ma'muriy, intizomiy, moddiy) shaxslar sudlangan xisoblanmaydi.

7. Jazo bu jinoyat sodir etgan shaxsni sodir etgan kilmishi uchun jazolashdir. Jazoning bu zurlov, majburlov tomoni, jinoyatchini jismoniy, mulkiy, ma'naviy va boshka jixatlardan ma'lum darajada cheklash va maxrum qilishdir. Sud shaxsni ozodlikdan maxrum kilganda uni istagan joyda yashash huquqini chegaralashi, muayyan mansabni egallash yoki muayyan ish bilan shugullanishni cheklashi mumkin. Jinoiy jazo jinoyatchining shaxsiga karatilgan bo`lib, xatto u javobgarlikdan kochgan vaktda xam undan boshka shaxsga nisbatan kullanilmaydi.

8. Jinoiy jazoning vazifasi faqatgina sodir etilgan kilmish uchun jazolash bulmay shuningdek maxkumlarni tuzatish va kayta tarbiyalashning aloxida vositasi bo`lgan jinoiy jazo choralari zarurdir. Shuning bilan birga kam axamiyatli va ijtimoiy xavfi kata bulmagan jinoyatni sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod kilinib ma'muriy intizomiiy yoki jamoat ta'sir choralarini kullash yuli bilan xam tarbiyalanadi. Jazoni utash jarayonida shaxsga nisbatan kullanilgan jazoni utash jarayonida uning tarbiyaviy ta'siri kata buladi. Shuning uchun jazo tayinlangan xukmlarni ijro etish bilan shugullanuvchi organlarning bu soxadagi faoliyati kata axmiyatga egadir.

Jinoiy jazo quyidagi talablarga javob beradi. Masalan:

1. Jinoiy jazo davlat majburlov chorasi xisoblanadi.

2. Jinoiy jazo chorasi faqat sud tomonidan tayinlanishi mumkin. Jazoni tayinlash uchun jinoiy kilmishning sodir etilganligi asos buladi, boshka xech kanday kilmish emas.

3. Jazo faqat jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan tayinlanadi.

4. Jazo muayyan huquq va erkinlikni chegaralashda ifodalanishi kerak.

5. Maxsus huquq va erkinliklardan maxrum qilish faqat jinoyat qonunida kursatilishi mumkin.

Jinoiy jazoni ijtimoiy kategoriya sifatida urganishning muxim muammosi uning ijtimoiy funktsiyasi xisoblanadi. Jazoning muxim funktsiyalaridan biri jinoyat sodir etgan shaxsni unga nisbatan jazoni kullash orkali u ogoxlantirilishidir.

Jinoiy jazo umumiy va maxsus ijtimoiy nazorat funktsiyasini amalga oshiradi. Insoniy nazoratning samaradorligi jazoni jinoyatchilikka karshi kurash vositasi sifatida kullanilishiga kupincha ijtimoiy uzgurishlarning qonunchilikda aks ettirilishiga boglikdir.

Jazo maksadini belgilash – jinoyat huquqining muxim masalalaridan biri. Uning xal kilinishiga nafaqat shu huquq soxasining institutlari, balki jinoyat qonuni normalarining kanday maksadlarda kullanishiga boglikdir.

JK ning 42 – moddasining 2 – kismida jazoning maksadi belgilangan bo`lib, unga kura jazo maxkumni axlokan tuzatish uning jinoiy faoliyatini davom ettirishiga tuskinlik qilish, xamda boshka shaxslarning jinoyat sodir etishining oldini olish maksadida kullaniladi.

Qonunda belgilangan jazo maksadi – ijtimoiy adolatni tiklashdir. Bular:

1- dan jazo, sodir etilgan jinoyat va aybdorning shaxsiga muvofik bulishi, jabrlanuvchi va uning yakinlari oldida davlat va boshka organlar xamda jamiyat oldida adolatni tiklash, jinoyatni ogirligiga muvofik kilmishni anglatadi.

2 – dan jazoning maksadi, maxkumni tarbiyalashga karatilgandir.

2. Jazo tizimi deganda jinoyat qonuni bilan urnatilgan va sudlar uchun majburiy xisoblangan va ma'lum tartib asosida ularning engilidan ogiriga karab joylashtirilgan jazolar ruyxati tushuniladi.

Jazo tizimi tushunchasi uzida bir kator belgilarni nazarda tutadi. Jumladan jazo tizimida nazarda tutilmagan biror majburlov chorasi jinoiy jazo sifatida tayinlanishi mumkin emas. Jazolarning turlari, kullanish tartibi va asoslari faqat jinoyat qonunidagina belgilangan bo`lib, jazo tizimidagi jazolarning ruyxati sudlar uchun majburiy xisoblanadi. Yangi jinoyat qonuni avvalgi – 1959 yil 21 maydagi jinoyat qonunidan fark kiladi. Jumladan avvalgi jinoyat qonuni jazo tizimida jazolarning ogiridan engiliga karab tuzilgan bulsa, Yangi jinoyat qonunida jazo tizimi engil jazolardan ogiriga karab tuzildi.

JK ning 43 – moddasida jazo tizimi berilgan bo`lib, unda jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan kullaniladigan jazo turlari kursatilgan. JK nmng 43 – moddasida belgilangan jazo tizimi sodir etilgan jinoyatning ogirligi yoki unga xavfli emasligi nuktai nazaridan jinoyat huquq nazariyasiga muvofik bulishi tugri fikrga mos keladi.

Jinoyat huquqida jazo tizimi umumiy printsiplar asosida tizimlashtirilgan. Unda qonuniylik fukarolarning qonun oldidagi tengligi va odillik va insonparvarlik printsiplari mustaxkamlangan. JK da kursatilgan jazo tizmining quyidagi elementlarini kursatib utish mumkin.

1. Davlat nomidan kullanilishi orkali sudlanuvchini tarbiyalashga jinoiy faoliyatining oldini olishga shuningdek umumiy maxsus preventsiyaga erishishi mumkin bo`lgan jazo tizimini tashkil kiluvchi elementlar sifatida faqat aloxida davlat majburlov choralari kursatiladi.

2. Jazo tizimi elementlari uzaro boglik va bir – birini tuldiradi. Jazo tizimining bu belgisi jazo samaradorligiga erishish uchun xar tomonlama yondashini bildiradi, ya'ni belgilangan maksadga erishish Biron bir jazo chorasini kullashga emas balki sudlanuvchiga kompleks ta'sir choralarining kullanilishi bilan boglik. Bu belgi JK

ning «maxsus» kismining tegishli moddasi normalarda mukobil jazo choralarining belgilanishini yoki kupincha jazo chorasini kullanilishida namoyon buladi.

3. Jinoyat qonunida belgilangan davlat majburlov choralari kat'iy bo`lib, uning kengaytirilishiga tyul kuyilmaydi. JK da kursatilmagan jazo choralarini aybdorga kullanishi mumkin emas. JK da jazo timiga kiritilmagan jazo chorasi JK ning «maxsus» kismi sanktsiyasiga kiritilishi mumkin emas.

4. Jazo tizimiga kiritilgan jazo turlari jinoyatning ogirlik darajasi buyicha engilidan ogiriga karab joylashtirilgan.

JK ning 43 – moddasida jazoning quyidagi turlari kursatilgan.

1. asosiy
2. kushimcha

Asosiy jazolar – bu sodir kilingan jinoyat uchun asosiy jazo sifatida mustakil tayinlanishi mumkin bo`lgan jazolardir. Bu jazolar xech kachon boshka jazolarga kushimcha jazo sifatida tayinlanishi mumkin emas. Qonun sanktsiyalarida bir necha asosiy jazolar nazarda tutilgan bulishi mumkin, lekin sud bita jinoyat uchun bu jazolardan faqat bittasini asosiy jazo sifatida tanlab olib tayinlaydi. Quyidagi jazolar: jarima, axlok tuzatish ishlari, xizmat buyicha cheklash, kamok, intizomiy kismga junatish, ozodlikdan maxrum qilish, ulim jazolari faqat asosiy jazo sifatida tayinlanadi.

Quyidagi jazo esa yo asosiy jazo sifatida yoki kushimcha jazo sifatida tayinlanishi mumkin. Bunga muayyan huquqdan maxrum qilish jazosi kiradi.

Jarima - jinoiy jazo sifatida Uzbekiston respublikasi JK ning 44 – moddasida nazarda tutilgan bo`lib, bu aybdorlardan davlat daromadiga JK da belgilangan mikdorda pul undirishdir. JK 44 – moddasining 2 – kismiga binoan jarimaning mikdori eng kam oylik ish xakining besh baravaridan yuz baravarigacha mikdorda, voyaga etmaganlarga nisbatan esa, JK ning 82 – moddasiga muvofik eng kam oylik ish xakining ikki baravaridan yigirma baravarigacha mikdorda tayinlanadi.

Muayyan huquqlardan maxrum qilish – jinoiy jazo sifatida muayyan huquqdan maxrum qilish JK ning 45 – moddasiga kura sud tayinlagan muddat davomida aybdorning korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda u yoki bu faoliyat bilan shugullanishini ta'kiklashdan iboratdir.

Axlok tuzatish ishlari – shaxsni kayta tarbiyalash maksadida majburan mexnatga jalb kilib, maxkumning uzi ishlab turgan joyida yoki mazkur jazo ijrosini nazorat kiluvchi organlar belgilab bergan boshka joylarda utashdan iboratdir.

Xizmat buyicha cheklash – jazosi JK ning 47 – moddasiga muvofik, ofitserlar tarkibiga kiruvchi xarbiy xizmatchi, shartnoma asosida utayotgan xarbiy xizmatchini sud xukmida kursatilgan muddat davomaida muayyan huquq va imtiyozlardan maxrum kilib, pul ta'minotining 10% dan 30% gacha bo`lgan mikdorini davlat daromadi xisobiga ushlab kolishdan iboratdir. Xizmat buyicha cheklangan maxkumning ixtiyoriy xizmati urniga majburiy xizmat shakliga aylanadi.

Kamok – shaxsni erkin xayotdan batamom ajratgan sharoitda saklashdan iborat bo`lib, 18 yoshdan oshgan shaxslarga nisbatan bir oydan olti oygacha

muddatga, jinoyat sodir qilish paytida 18 yoshga tulmagan shaxslarga nisbatan esa, bir oydan uch oygacha muddatga tayinlanadi.

Kamok, ozodlikdan maxrum qilish jazosidan fark kilib JK ning 48 – moddasi mazmuniga kura maxkum jamiyatdan batamom ajratilgan xolda saklanadi.

Intizomiy kismga junatish – jazosi sudlar tomonidan faqat muddatli xarbiy xizmatchilarga kullaniladigan jazo turidir. Intizomiy kismga junatishda jinoyat sodir kilgan xarbiy xizmatchi majburiy tarzda xukmda kursatilgan muddatga maxsus xarbiy intizomiy kismga junatiladi.

Intizomiy kismga junatish jazosi JK ning 49 – moddasiga muvofik faqat asosiy jazo tarikasida uch oydan bir yilgacha muddatga kullaniladi.

Ozodlikdan maxrum qilish – maxkumni sudning xukmida kursatilgan muddatga shu jazoni maxsus utash joylariga joylashtirib majburiy tarzda jamiyatdan ajratishdan iborat. Ozodlikdan maxrum kilingan maxkumlar huquqiy xolatlarda jamiyatning boshka a'zolaridan farkli ravishda faqat ozodligi chegaralab kuyilmay, balki bir kancha huquqlardan xam maxrum kilinadilar.

Ozodlikdan maxrum qilish JK 50 – moddasiga muvofik 6 oydan 20 yilgacha muddatga bir nechta jazolarni kushishi yuli bilan jazo tayinlashda esa 25 yilgacha belgilanishi mumkin. Voyaga etmagan shaxslarga nisbatan esa 6 oydan 10 yilgacha tayinlanishi mumkin.

Ulim jazosi – jinoyat qonunida ulim jazosi eng ogir jazo xisoblanadi. Shuning uchun xam uz vaktida bu jazoni favkulotda jazo chorasi deb aytilgan edi. Bu jazoni bir kator olimlar jazo tizimidan chikarish masalasini xam kuygan edilar. Huning uchun xam otib uldirish tarikasidagi ulim jazosini uta xavfli jinoyatlarni sodir kilgan shaxslargagina kullaniladi.

Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning «insonparvarlik» tamoyiliga tayanib 2008 yil 1 yanvardan boshlab «ulim jazosi» bekor kilinsin degan karorlari e'lon kilindi.

Kushimcha jazolarga – xarbiy yoki maxsus unvonlardan maxrum qilish kiradi. Jinoiy jazolarni lebirallashtirish munosabati bilan JK da jazo tizimidan mol – mulkni musodara qilish chikarildi.

Umummiy va maxsus jazolar jazo chorasi sub'ektning maxsus belgilariga karab kullaniladi.

Umumiy jazolar – bu jinoyat sub'ekti belgilariga ega bo`lgan xar kanday shaxsga nisbatan kullnishi mumkin bo`lgan jazo tizimidir.

Maxsus jazo – qonunda kat'iy belgilangan sub'ektlar doirasiga kullaniladigan jazo chorasidir. Masalan: intizomiy kismga junatish, va xarbiy unvondan maxrum qilish faqat xarbiylarga nisbatan kullaniladi.

Jinoyat qonunini lebirallashtirish deganda ayrim jazolarning engillashtirish xolatlari kiradi. Masalan: ulim jazosini bekor kilinishi xam shular jumlasiga kiradi.

Manna mamlakatimiz istikbolining 15 yili xam tarix saxifalariga muxrlanmokda. Albatta yil yakunida ortimizga nazar tashlasak mustakillikning utgan yillari davomida deyarli barcha jabxalarda keng kulamli isloxotlar amalga oshirilganligini kuramiz. Jumladan sud huquq soxasida xam.

Jinoiy jazolarning liberallashtirish yarashuv institutining joriy kilinishi 2008 yildan ulim jazosining bekor kilinishi va kamokka olinishi ga sanktsiya berish

vakolatining sudlarga utkazilishi – bular barii isloxotlarning nakadar keng kulamga ega ekanligini kursatadi.

Eng muximi shundaki, xar bir kadam, xar bir uzgarish zamirida inson va uning manfaatlari yotadi.

2006 yil 7 dekabr kuni Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining kabul kilinganligining 14 yilligi munosabati bilan Uzbekiston Respublikasi Prezidentining takdimnomasiga muvofik insonparvarlik tamoyiliga amal kilib, Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 80 – moddasi 10 – bandiga va 93 – moddasi 23- bandiga asosan Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati karor kiladi.

1. Uta ogir bulmagan jinoyatlari uchun birinchi marta sudlangan shaxslar jazodan ozod kilinsin.

a) ayollar b) jinoyat sodir etgan vaktda 18 yoshga tulmagan shaxslar v) 60 yoshga tulgan erkaklar g) chet el fukarolari.

2. extiyotsizlik orkasida jinoyat sodir etganlar, shuningdek birinchi marta xukm kilingan shaxslar basharti ular ijtimoiy xavfi katta bulmagan jinoyat yoki uncha ogir bulmagan jinoyat sodir etgan.

3. mazkur karor kuchga kirgunga kadar 1 yildan oshmagan muddat ichida qonunda belgilangan tartibda jazoni utashga tuskinlik kiladigan ogir kasallikka chalingan yoki birinchi va ikkinchi gurux nogironlari deb topilgan, shaxslar (javobgarlikni ogirlashtiradigan xolatlarda kasddan odam uldirish jinoyatini sodir etganlar bundan mustasno) jazodan ozod kilinsin.

4. ozdlikdan maxrum etish jazosiga xukm etilib, utalmay kolgan jazo muddati 2 yildan kup bulmagan xukmi mazkur karor e'lon kilingan kunga kadar qonuniy kuchga kirgan maxkumlar (javobgarlikni ogirlashtiradigan xolatlarda kasddan odam uldirish jinoyatini sodir etganlar bundan mustasno) jazodan ozod kilinsin.

5. ta'kiklangan tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki ular tarkibida tinchli va xavfsizlikka karshi yoki jamoat xavfsizligiga karshi jinoyatlar sodir etganlari uchun birinchi marta 10 yildan kup bulmagan muddatga ozodlikdan maxrum etishga xukm kilinib tuzalish yuliga kat'iy utgan shaxslar jazodan ozod kilinsin.

6. uhbu karorning 1- va 2- bandlarida kayd etilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan olib borilayotgan barcha tergov ishlari va sudda kurilmagan ishlar tugatilsin.

10. ushbu karor e'lon kilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi, va 3 oy mobaynida ijro etilishi lozim.

## 10. Mavzu: Voyaga etmaganlarni jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod kilish.

**Reja:**

**Voyaga etmaganlarga nisbatan kullaniladigan jazoning asosiy maksadi va vazifasi.**
**Voyaga etmaganlarning jinoiy javobgarlik va jazodan ozod kilinishi.**
**Majburlov choralrini kullagan xolda voyaga etmaganlarni javobgarlikdan yoki jazodan ozod kilish.**
**Voyaga etmaganlarni jazoni utashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod kilinishi.**
**Jazoni engilrogi bilan almashtirish.**

Voyaga etmaganlar javobgarligining uziga xos xususiyati shundaki, ularga jazo tayinlashda xar doim jazoni engillashtiradigan xolat xisoblanadi. Bulardan tashkri ularning jazosi engillashtiruvchi tomonga jiddiy kiskartirilgan. Bu bilan Uzbekiston Respublikasi Jinoyat konunining insonparvarlik printsipi yana bir br ta'kidlanadi. Konunda voyaga etmaganlarga jazo tayinlashda «tikanli sim ortidagi xayotning salbiy ta'siridan iloji boricha ularni saklashdir».

Sud voyaga etmaganlarga jazo tayinlashda ularning akliy va jismoniy rivojlanganlik darajasini xisobga oladi.

Sud voyaga etmaganlarga jazo tayinlashda ularning rivojlanganlik dararjasi, turmaush sharoiti va tarbiyasini, sogligini, sodir etgan jinoyatini sabablarini katta yoshdagilarni va boshka xolatlarning uning shaxsiga ta'sirini xisobga oladi. Zarur bulganda uning yashash joyiga borib buni aniklash lozim.

Oila tarbiyasi voyaga etmaganning butun xayoti davomidagi shakllanishning asosiy uzagi xisoblanadi. Bola oiladan nimani olgn bulsa, uni butun xayoti davomida uzida saklaydi. Shuning uchun uni tarbiyalangan muxiti xam xisobga olinadi.

Ayrim xollarda voyaga etmagan yoshlardagi maktanchoklik, shuxlik, uzini kursatish kabi xususiyatlari ijtimoiy xavfli tus olishi, bu jinoyat ekanligini sezmay kolishi xam mumkin.

Davlat jinoyat konunida voyaga etmagan shaxsni spirtli ichimliklar iste'mol kilishga giyoxvandlik va psixotrop moddalar xisoblanmagan lekin kishining akl-idrokiga ta'sir kiladigan vosita va moddalarni iste'mol kilishga jalb etish uchun jinoiy javobgarlikni belgilab, ularni normal rivojlanishi va shakllanishiga sharoit yaratib beradi. Agar jinoyatga jalb kilish xarakatlari ukuv yurtlarida yoki ukuvchilar, studentlar orasida, ukuv tarbiya, sport va jamoat tadbirlari utkaziladigan boshka joylarda sodir kilinsa javobgarlikni ogirlashtiradigan xolat sifatida kvalifikatsiya kilinib 127 moddaning 3 kismi «v» bandi bilan javobgaprlik belgilanadi.

Maxkumni tuzatish, kayta tarbiyalash xamda jinoyatchilikning umumiy va maxsus oldini olishdan iboratdir. Voyaga etmaganlarni jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod kilish xam yukoridagi maksadni kuzlaydi.

Voyaga etmaganlar:

fakat voyaga etmagan shaxslarga nisbatan;

ijtmoiy xavf katta bulmagan jinoyat birinchi marta sodir etilganda;

sodir etilgan kilmishning xususiyati, aybdorning shaxsi va boshka xolatlarni xisobga olib, aybdorni jazo kullamay xam tuzatish mumkin, deb topiladi.

ishni voyaga etmaganlar bilan shugullanuvchi komissiyaga topshirish yuli bilan javobgarlikdan ozod kilish.

Fakat ushbu xolatlarning barchasi mavjud bulgan xolda voyaga etmagan shaxs JKning 57 moddasi 1-kismiga kura, javobgarlikdan ozod kilish mumkin. Shaxsni javobgarlikdan ozod kilishda uning 18 yoshga tulmaganligini aniklash bilan birga, xukm chikarish vaktida yoshi xam aniklashi lozim. Agar xukm chikarish vaktiga kelib 18 yoshga tulgan bulsa, uni jinoiy javobgarlikdan ozod kilish masalasi JKning 64-68 moddalariga asosan xal kilinishi kerak.

Jinoyatchini boshka vosita bilan tuzatish mumkin, deb topilsa, uni jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod kilish, shuningdek, tayinlangan jazoning ma'lum bir kismini utagandan sung, jazo muddati tugamasdanok maxkumni jazodan ozod kilish mumkin. Voyaga etmaganlarni javobgarlik va jazodan ozod kilishning ikki (umumiy va maxsus) turi mavjud:

Umumiy turi - JKning 12 va 13 boblarida belgilangan. 12 bobda javobgarlikka tortish muddatining utib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod kilish (64m.);

Jazodag ozod kilishning esa kuyidagi umumiy turlari mavjud: jazoning ijro etish muddatining utib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod kilish (69m.);

Voyaga etmagan shaxsni javobgarlik va jazodan ozod kilishning kuyidagi turlari mavjud:

voyaga etmaganlarning ishlarini voyaga etmaganlar bilan shugullanuvchi komissiyaga topshirish orkali jazodan ozod kilish;

majburlov chorasini kullash orkali jazodan ozod kilish.

Voyaga etmaganlarni jinoiy javobgarlikdan ozod kilish fakat voyaga etmaganlar bilan shugullanuvchi komissiyaga topshirish orkali amalga oshirilishi mumkin. Bunday karorga kelish uchun JKning 87 moddasi 1-kismida kursatilgan shartlar:

jinoyat sodir etish vaktida shaxsning 18 yoshga tulmaganligi;

ijtimoiy xavfi katta bulmagan jinoyatni 1-marta sodir etgan bulishi;

sodir etilgan kilmishning xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshka xolatlari mavjud bulishi lozim.

Yukorida kursatilgan 3 shartning xammasi br vaktning uzida mavjud bulganida voyaga etmagan shaxs javobgarlikdan ozod kilinadi.

Komissiyaning voyaga etmaganlar shaxsni ogoxlantirish tugrisidagi karori 1 yil mobaynida amal kiladi.

Komissiyaning voyaga etmagan shaxsni uz ota-onasi, ular urnini bosuvchi shaxslar yoki jamoat tarbiyachilari nazoratiga yoxud mexnat jamoasi, jamoat tashkiloti kuzatuviga topshirish tugrisidagi krorining amal kilish muddati, agar, voyaga etmagan shaxs uzining namunali axloki va ishga xamda ukishga bulgan

munosabati bilan uzining tuzilganligini isbot etsa, mazkur shaxslar yoki tashkilotlar iltimosiga binoan istalgan vaktda bekor etilishi mumkin.

Voyaga etmagan shaxslar uchun belgilangan maxsus ukuv-tarbiya muassasalariga kar-sokovlar, kurlar, ruxiy bemorlar, akli zaif bulgan voyaga etmaganlar, shuningdek, maxsus ukuv-tarbiya muassasalariga kabul kilish uchun tibbiyot nuktai nazaridan tugri kelmaydigan belgilar kuyilgan ruyxatda kursatilgan jismoniy kamchiligi va xastaliklari bulgan bolalar xamda usmirlarning yuborilishi mumkin emas.

Basharti, voyaga etmagan shaxs tarbiyalash maksadida «Mexribonlik» uyiga yoki maktab – internatiga yuborilgan bulsa, bu xolda uni «Mexribonlik» uyidan yoki maktab – internatdan chikarish tugrisidagi karor shu «Mexribonlik» uyi yoki maktab – internat joylashgan erdagi komissiya tomonidan kabul kilinadi.

Ozod bulgan voyaga etmagan shaxsning uz ota-onasi yoki ular urnini bosuvchi shaxslar xuzuriga kaytishiga ularning yukligi yoxud ota-onalik xukukidan yo vasiylik xukukidan maxrum etilganligi munosabati bilan imkon bulmasa, ozod bulgan ana shu voyaga etmagan shaxsning ilgari yashab kelgan joyidagi komissiya koloniya ma'muriyatining takdimi bilan uni ixtisosiga muvofik keladigan ishga yoki ukishga joylashtirish, shuningdek, unga tegishli uy-joy bilan ta'minlash va maishiy sharoitlar yaratib berish choralarini kuradi.

Majburlov choralarini kullagan xolda jinoiy jazodan ozod kilish fakat sud tomonidan amalga oshiriladi. Majburlov chorasini kullash uchun kuyidagi shartlar mavjud bulishi kerak:

jinoyat sodir etish vaktida shaxsning 18 yoshga tulmaganligi;

uncha ogir bulmagan jinoyatni 1 marta yoki ijtimoiy xavfi katta bulmagn jinoyatni takroran sodir etgan bulsa;

shaxsni jazo chorasini kullamasdan turib, tarbiyalash mumkin bulsa;

uz ishiga nisbatan rivojlanish darajasi ancha orkada kolgan bulsa, uz kilmishining xususiyatini anglab etmagan bulsa.

Voyaga etmaganlarni jazodan ozod kilish ularni jinoiy javobgarlikdan ozod kilishga uxshasa-da, undan fark kiluvchi kat'iy talab va chegaralarga ega. Voyaga etmagan:

1. fakat sud tomonidan;
2. voyaga etmagan shaxs tomonidan 1 marta ijtimoiy xavfi katta yoki uncha ogir bulmagan jinoyat sodir etilgan bulsa;
3. tarbiyaviy xususiyatdagi majburlov chorasini kullash orkali jazodan ozod kilinadi.

Voyaga etmagan shaxsni jazodan ozod kilish sud tomonidan shaxsni aybdor, deb topi shorkali xukmda jazo tayinlamasdan amalga oshiriladi, ammo majburlov chorasi belgilanadi.

Uz xususiyatiga kura majburlov choralari tarbiyaviy xususiyatga ega. Sud majburlov chorasini kullayotganda tarbiyalash maksadini kuzlashi lozim. Shu bilan birga sud tomonidan kullanilayotgan ushbu chora majburlov xususiyatiga ega. Bu majburlov chorasining fakat sud tomonidan kullanishiga va voyaga etmagan shaxsning yoki uning konuniy vakilining ixtiyoriga boglik bulmagan xolda ijro etilishida ifodalanadi.

Majburlov choralari tuzilishiga kura, bir-biridan farklanadi. Xar bir ta'sir chorasi voyaga etmaganlarni tarbiyalashda uz xususiyatiga ega. JKning 88-moddasiga muvofik majburlov chorasining kuyidagi turlari farklanadi.

1. Sud belgilaydigan tartibda aybdor jabrlanuvchidan uzr surash majburiyatini yuklash. Bu majburlov chorasi jabrlanuvchi oldida sud belgilagan tartibda: sud majlisida, ish joyida, ta'lim muassasasi yoki jabrlanuvchi yoxud aybdorning yashash joyida amalga oshiriladi. Sud belgilagan xollarda yozma shaklda xam uzr surashi mumkin.

Uzr surash ogzaki yoki yozma tartibda, shuningdek, yakka tartibda xam amalga oshirilishi mumkin.

2. Etkazilgan zarar mikdorini koplash majburiyatini yuklash. Zararni koplash majburiyatini yuklash. Zararni koplash uz mablagi xisobidan yoki mexnat kilish orkali amalga oshirilishi mumkin. Bu majburlov chorasini amalga oshirish tartibi va muddati sud tomonidan belgilanadi. Ushbu ta'sir chorasini kullash kuyidagi xollarda amalga oshirilishi mumkin:

a) voyaga etmagan shaxs 16 yoshga tulgan bulsa;

b) etkazilgan zarar mikdori eng kam oylik ish xakining 10 barobaridan yukori bulmasa, uni koplash majburiyati yuklatiladi. Boshka xollarda zarar fukarolik sudiga da'vo kuzatish orkali undiriladi. Bu majburlov chorasining jarima jazosidan farki kuyidagilarda kurinadi.

1) ta'sir chorasi sifatida etkazilgan zarar mikdorini koplash yuklatiladi;

2) tulanadigan summa jabrlanuvchi foydasiga undiriladi, jarima esa davlat byudjetiga;

3) zarar mikdori eng kam oylik ish xakining 10 barobaridan oshmasa, sud tomonidan, agar undan ortik bulsa, fukarolik sudi tomonidan undiriladi, jarima esa jinoyat ishlari buyicha sud tomonidan undiriladi;

3. voyaga etmagan shaxsni maxsus ukuv-tarbiya muassasasiga joylashtirish. Voyaga etmagan shaxsni maxsus ukuv – tarbiya muassasalarida bilish muddati va shartlari Uzbekiston Respublikasi konunlari bilan belgilanadi.

Yopik tipdagi maxsus ukuv – tarbiya muassasida tarbiyalashning aloxida usullari kullaniladi.

Maxsus ukuv-tarbiya muassasasiga joylashtirish jazo chorasi xisoblanmaydi, chunki:

jazo choralari tizimida kursatib utilmagan;

bunday muassasada bulish muddati sud tomonidan belgilanmaydi;

sudlanganlik muddati mavjud emas.

Uzbekiston Respublikasi JKning 89 m.jazoni utashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod kilish asoslari kursatilgan:

jinoyatning 18 yoshga tulmagan shaxs tomonidan sodir etilishi;

sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan maxrum kilish yoki axlok tuzatish ishlariga xukm kilingan bulishi;

jazoni utash tartib koidalariga rioya kilganligi;

mexnat va ukishga xalol munosabatda bulganligi;

faktik jixatdan:

a) ijtimoiy xavfi katta bulmagan yoki uncha ogir bulmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida turtdan bir kismi;

b) ogir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir kismi;

v) uta ogir jinoyat uchun, shuningdek, kasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan maxrum etishga xukm etilgan bulsa, tayinlangan jazo muddatining kamida yarmini xakikatda utab bulgan bulsa, jazoni utashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod kilish kullaniladi.

Jazodan shartli ravishda ozod kilish kuyidagi xususiyatga ega:

shaxsni ijtimoiy xayotga moslashishiga imkon beradi;

kayta jinoyat sodir kilmasligi uchun nazorat kilinishini ta'minlaydi;

jazoni utash muassasasidagi salbiy ta'sirni yukotadi.

Jazoni engilrogi bilan almashtirish sudning xukmiga kura, tayinlangan jazo turining kolgan kismini engilrok turdagi jazo bilan almashtirib, jazodan ozod kilishdan iborat.

Engirok jazo bilan almashtirish deganda, xukm buyicha tayinlangan bir turdagi jazoning kolgan kismini, usha jazoga nisbatan boshka engilrok turdagi jazo bilan almashtirish tushuniladi. Bir turdagi jazo shu turdagi jazoning kamrok kismi bilan almashtirilishi mumkin emas.

JKning 81-m-da  belgilanishicha, 18 yoshga tulmasdan jinoyatsodir etgan shaxslarga kuyidagi asosiy jazo turlari kullaniladi:

jarima;

axlok tuzatish ishlari;

kamok;

ozodlikdan maxrum kilish.

Ushbu moddaga kura, axlok tuzatish ishlaridan engilrok bulgan jazo – jarima xisoblanadi.

Jazoning utalmagan kismini engilrogi bilan almashtirish:

ijtimoiy xavfi katta bulmagan yoki uncha ogir bulmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida beshdan bir kismi;

ogir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida turtdan bir kismi;

uta ogir jinoyat uchun, shuningdek, kasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari kasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan maxrum kilishga xukm etilib, tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir kismini utab bulganidan keyin kullanishi mumkin.

Ozodlikdan maxrum kilish tarikasidagi jazoning utalmagan kismi axlok tuzatish ishlari bilan almashtirilganda, axlok tuzatish ishlari ozodlikdan maxrum kilish jazosining utalmagan kismi muddatiga tayinlanadi. Jazo engilrogi bilan almashtirilganda, shaxs jazoning utalmagan kismi mobaynida yangi jinoyat sodir etsa, sud unga nisbatan bir necha xukm yuzasidan jazo tayinlaydi va 86 moddada belgilangan jazo tayinlash koidalariga amal kilinadi.

## 11. Mavzu: Tibbiy yusindagi Majburlov choralari, asoslari va ularni tayinlashi.

## Reja:

Majburlov choralari tushunchasi va maksadi.
Tibbiy yusindagi majburlov choralarining turlari va ularni kullash asoslari.
Alkogolizm, Giyoxvandlik zaxarvandlik yulikkan shaxslarga nisbatan tibbiy yusindagi choalarni kullash.

Tibbiy yusindagi majburlov choralari sud tixnatriya ekspertizasi xulosasiga asoslanib xolda muayyan ruxiy kasallika chalingan va jinoyat kodeksining «Maxsus kismida kursatilgan ijtimoiy xavfli kilmishlardan sodir etgan, shuningdek alkogolizm, giyoxvandlik yoki zaxarvandlikka chalingan shaxslarga nisbatan kullnadigan, majburiy ruxiy davolashdir. Uzbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 92-moddasida tibbiy yusindagi majburlov choralarini kullashning umumiy asoslari belgiab berilgan ijtimoiy xavfli kilmishning akli norasolik xolatida yoki xukm chikarulgunga kadar yoxud jazoni utash vaktida ruxiy kasalikka chalinganligi okibatida uz xarakatlarining axamiyatini anglamaslik va uz xarakatlarini boshkara olmaslik xolatida sodir etgan shaxsga nisbatan agar u ruxiy xolati va sodir etgan kilmishning xususiyatiga kura jamiyat uchun xavfli deb topilsa sud tibbiy yusindagi majburlov choralarini tayinlashi mumkin. Tibbiy yusindagi majburlov chorasi shaxsiy davolash maksadida kullaniladi. Davolash deganda, tibbiy yusindagi majburlov chorasi kullanilgan shaxsni ijtimoiy xayotga moslashuvi uning ruxiyatini uzgartirish maksadida kullaniladigan ta'sir chorasi tushuniladi.

Bunday usulda davolash shaxsning tulik tuzalishini maksad kilib kuymasa-da, ammo shaxsni jamiyat uchun xavf tugdirmaydigan darajada ruxiy jixatdan tuzatishga karatiladi.

Shu yusindagi tibbiy majburlov chorasi asosida davolash maksadida ta'sir kursatadi.

Yukoridagi koidaga muvofk tibbiy yusindagi majburlov choralari sud tomonidan tayinlanadigan davlatning majburlov chorasi sud xukmi bilan emas, balki sud karori bilan belgilanadi.

Tibbiy yusindagi majburlov choralari sud tomonidan tayinlanadigan davlatning majburlov chorasi bulib xisoblanadi. Bu majburlov chorasi sud xukmi bilan emas balki sud karori bilan belgilanadi. Tibbiy yusindagi majburlov chorasi ruxiy kasallika chalingan shaxs tomonidan sodir etilishi mumkin, bulgan ijtimoiy xavfli kilmishning oldini oladi, ularni davolash va jamiyat manfaatlarini ximoya kilishga xizmat kiladi. Tibbiy yusindagi majburlov chorasining anik bir turini kullashdan oldin sud belgilangan maksadlarning xar biriga erishish mumkinligiga e'tibor karatish lozim. Shunday kilib, tibbiy yusindagi majburlov choralari jinoiy jazo chorasidan uz asosiga, tuzilishiga va yuridik okibatiga kura fark kiladi. Yuridik okibati deganda, sudlanganlik xolatini vujudga kelishi tushiniladi. Tibbiy yusindagi majburlov chorasi sudlanganlik xolatini vujudga kelishi tushuniladi.

Tibbiy yusindagi majburlov chorasi sudlanganlik xolatini vujudga kelishi tushuniladi. Tibbiy yusindagi majburlov chorasi sudlanganlik xolatini keltirib chikaradi.
Agar alkagolizm giyoxvandlik yoki zaxarvandlikka yulikkan shaxslarga nisbatan jazo chorasi bilan birga tibbiy yusindagi majburlov chorasi kullash bilan birga kullanilgan bulsa, sudlanganlik muddatini xisoblashda majburlov choralari tayinlangan muddat xisobga olinmaydi.
Agar shaxs jazoni utash vaktida ruxiy kasalikka chalinganligi uchun jazodan ozod kilingan bulsa, sudlanganlik muddati jazoning xakikatda utalgan kismga nisbatan xisoblanadi.
Tibbiy yusindagi majburlov chorasi kullash uchun
1. Ijtimoiy xavfli kilmishni akli norasolik xolatida sodir etilishi.
2. Ijtimoiy xavfli kilmishni sodir etish vaktida akli raso bulgan lekin sud xukmi chikarulgunga kadar uz kilmishining axamiyatini anglab etish yoki uz xarakatini boshkarish kobiliyatidan maxrum etadigan ruxiy kasalikka chalinishi.
3. Jinoyat sodir etganligi uchun jazoga maxrum kilingan lekin jazoni utash vaktida ruxiy kasalikka chalinib uz kilmishini axamiyatini anglab etish yoki uz xarakatini boshkarish kobiliyatidan maxrum bulishi.
4. Alkogolizm, giyoxvandlik yoki zaxarvandlik kasalligiga yulikkan shaxslarning jinoyat sodir etishi asos bulib xisoblanadi.
Tibbiy yusindagi majburlov choralari yukorida keltirilgan turt toifadagi shaxslarga nisbatan sud tomonidan kullaniladi, bu toifadagi shaxslarning xar biri maxsus belgilarga ega. Birining toifaga JKning maxsus kismida kursatilgan ijtimoiy xavfli kilmishlardan birini akli noraso xolatida sodir shaxslar kiradi. Bu ruxiy shaxslar kasalligi tufayli uz xarakatining faktik xususiyatini shuningdek, kilmishning ijtimoiy xavfliligi va biror ob'ektga nisbatan muayyan zarar etkazilishini anglab etmaydi.
Jinoyatning sub'ekti akli noraso shaxs bulganligi tufayli bunday shaxslar ijtimoiy xavfli kilmish sodir etsalarda ularning kilmishi jinoyat xisoblanmaydi.
Shu tufayli ularni jinoiy javobgarlikka yoki jazoga tortishi mumkin emas. Bunday toifadagi shaxslarga nisbatan tibbiy yusindagi majburlov chorasi kullaniladi.
Ular jazoga tortishning jazoning tarbiyalash va ogoxlantirish maksadi amalga oshmaydi.
Ikkinchi toifadagilarga jinoyat sodir etigandan sung jinoiy javobgarlikka tuskinlik kiluvchi kasallikka chalingan shaxslar kiradi.
Bu toifadagi shaxslarga akli rasolik xolatida jinoyat sodir etgandan sung dastlabki tergov yoki sud majlisi davomida ruxiy kasallikka chalingan shaxslar kiradi. Bunday xolatda ularga nisbatan jinoiy jazo kullanilmaydi. Ularga nisbatan fakat majburlov chorasi kullaniladi.
Xukukshunos S.V. Afinogenovning ta'kidlashicha bu toifaga mansub shaxslarga tibbiy yusindagi majburlov chorasini kullash uchun
a) JKning maxsus kismi normalarda kursatilgan ijtimoiy xavfli kilmishlardan birini sodir etishi;
b) uz xarakatining boshkarishga va uz kilmishining xususiyatini anglab etishiga tuskinlik kiluvchi xolatining mavjudligi;

v) sodir etilgan kilmishning xususiyati va shaxsning ruxiy xolati tibbiy yusindagi majburlov chorasini kullashni takozo etishi kabi shartlar bulishi lozim.
Uchinchi toifaga jazoni utash vaktida ruxiy kasallikka chalingan shaxslar kiradi. Ular jazoni utash vaktida uz xarakatining axamiyatini anglamaydi va uz xarakatlarini boshkara olmaydi.
Bunday xollarda ularga nisbatan kamok va jazoni ijro etish muassasi boshligining karori bilan sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlanadi.
Turtinchi toifadagi shaxslarga konun jinoyatni akli raso xolatda sodir etgan, ammo alkogolizm, giyoxvandlik yoki zaxarvandlikka yulikkan shaxslar xam umumiy asoslarga kura jinoiy javobgarlikka va jazoga tortiladi.
Ularga nisbatan majburiy davolash choralari jinoiy jazo bilan bir katorda kullaniladi.
Tibbiy yusindagi majburlov chorasini kullash konuniylik, insonparvarlik, Inson va fukarolarning xukuklarini ximoya kilish kabi printsiplarga asoslanadi. Tibbiy yusindagi majburlov chorasini kullanilgan shaxslarning xukuklari ularga berilgan kafolatlari, Uzbekiston Respublikasining «Psixiatriya yordami tugrisida»gi Konuni bilan tartibga solinadi. Ruxiy kasallarga psixiatriya yordami kursatish va kuyidagilar kafolatlanadi.
1. psixiatriya muassasalarida xukukiy maslaxatlar beri shva yuridik yordamining boshka turlari:
2. vasiylik va xomiylik masalalarini xal etish:
3. shoshilinch psixiatriya yordami kursatish va boshkalar:
Ruxiy kasallikka chalingan shaxslar.
1. Uzlariga nisbatan inson kadr-kimmati kamsitilishini istisno etadigan muruvvatli va insoniy muomila kilinishi.
2. Uz xukuklari xakida, shuningdek ruxiy xastaliklari xususiyati xamda kullanilayotgan davolash usullari xakida uzlari uchun tushunarli shaklda va uz ruxiy xolatlari xsobga olingan xolda ma'lumot olish.
3. Tibbiy zaruratga kura davolashning barcha turlaridan foydalanish.
4. Sanitariya-gigiena talablariga kura javob beradigan sharoitlarida psixiatriya yordami kursatilishi.
5. Tibbiy vositalar va usullarni sinash ilmiy tadkikotlar va ukuv jarayoni ob'ekt tarikasida foydalanishga foto, video yoki kinosuratga olinishga oldindan rozilik beri shva istalgan boskichda undan voz kechish.
6. Uzlarining talablariga binoan psixiatriya yordami kursatishda ishtirok etayotgan istalgan mutaxasisni, ushbu konun bilan tartibga solinadigan masalalar yuzasidan tibbiy komissiyada ishlash uchun taklif etish.
7. Konun xujjatlarida belgilangan tartibda advokat, konuniy vakil yoki boshka shaxsning yordamini olish xukukiy egadir.
Tibbiy yusindagi majburlov choralari kuyidagi maksadlarni kuzlaydi.
1. Ruxiy kasallikka chalingan shaxslar tomonidan yangi ijtimoiy xavfli kilmish sodir etilishining oldini olish:
2. Ruxiy kasallikka chalinganlarni davolash yoki ularning ouxiy xolatini yaxshilash:

3. Alkogolizm, giyoxvandlik yoki zaxarvandlikka yulikkan shaxslarga nisbatan davolash va jazolashning maksadiga erishishga kumaklashuvchi sharoit yaratish.

Bu maksadlarni belgilash shaxsning ruxiy xolati ijtimoiy xavfli kilish sodir etishga olib kelgan omil ekanligini va uning ijtimoiy xavfliligidan guvoxlik berishni, unga nisbatan tibbiy yusindagi davolash kullashning zarurligi va davolash vaktida xamda undan sung bemorning boshka ijtimoiy xavfli kilmish sodir etishning oldini olishga karatilgan.

Alkogolizm, giyoxvandlik yoki zaxarvandlikka chalingan shaxslarga nisbatan kullaniladigan tibbiy yusindagi majburlov choralarining maksadi sifatida konunda mazkur bemorni davolash kayd etilgan.

Jinoyat sodir etgan mazkur toifadagi shaxslarni davolashni amalga oshirish ayni vaktda belgilingan maksadlarga erishishning zaruriy shartlari xisoblanadi.

Davolashni amalga oshirish maxkumlarning akliy irodaviy faoliyatiga ta'sir etiuvchi spirtli ichimliklar psixotrop moddalari va giyoxvandlik vositalariga karamligini bartaraf etishdan iborat.

M.N. Golodnyuknikning fikricha JKda belgilangan maksadlardan tashkari tibbiy yusindagi majburlov choralari ruxiy kasallarning xukuk va konuniy manfaatlarini ximoya kilish maksadini xam kuzlaydi.

2. Tibbiy yusindagi majburlov choralarini kullashning umumiy asoslari.

JKning 93-moddasida tibbiy yusindagi majburlov chorasini kullash uchu nasos buluvchi xolatlar anik belgilab kuyilgan. Ijtimoiy xavfli kilmishni sodir etgan shaxsga nisbatan tibbiy yusindagi majburlov chorasi.

1. Ushbu ta'sir chorasini kullash masalasi kurilayotgan shaxsning ijtimoiy xavfli kilmishni akli norasolik xolatida sodir etilganligi yoki xukm chikarulgunga kadar yoxud jazoni utash davomida ruxiy kasallikka chalinish.

2. Ijtimoiy xavfli kilmishni sodir etgan shaxs rxiy xolati va sodir etilgan kilmishning xukukiy okibatiga kura jamiyat uchun xavfli deb topilsa.

3.Sudning tibbiy yusindagi majburlov chorasi tayinlashi tugrisidagi karori mavjud bulsa kullaniladi.

JKda ruxiy kasallikka tushuncha berilmagan, lekin JKning 92-moddasi talabidan kelib chiksak ruxiy kasallik belgilarga:

1. Akli norasolik xolatida jinoyat sodir etish;

2. Xukm chikarulgunga kadar uz xarakatlarini anglay olmaydigan darajada kasal bulib kolishi;

3. Jazoni utash davomida uz xarakatlarini anglay olmaydigan darajada kasal bulib kolishi kiradi.

Sud-psixiatriya ekspertizasini utkazishda

1. Shaxsning ijtimoiy xavfli kilmish sodir etgan vaktida uz xarakatlarini idrok eta oladigan yoki idora kila olmaydigan darajada ruxiy kasal yoki ruxiyati vaktinchalik buzilgan akli zaif yoki boshka kasallik xolatida bulganligi.

2. Shaxsning jazo tayinlashi vaktida ruxiy kasal ekanligi tufayli, xukm kili shva jazolash uning tuzalishiga ta'sir kursata olmasligi.

3. Ushbu kasallik surunkalimi yoki shaxs muayyan vakt mobaynida tuzalish mumkinmi?

4. Shaxs duchor bulgan ruxiy kasallik yana ijtimoiy xavfli okibat keltirib chikarish yoki bunga sabab bulishi mumkinmi?

5. Shaxs uzining ruxiy xolatdan kura tugri kursatuv berishga kuzdan kechirishi, guvoxlantirish eksperment utkazish va tergov xamda sud xarakatlarda ishtirok etishga kodirmi?

Tibbiy yusindagi majburlov chorasi jinoyat yoki ijtimoiy xavfli kilmish sodir etgan shaxslarga nisbatan tayinlanadi.

Shu boi sakli norasolik xolatida ijtimoiy xavfli kilmish sodir etgan shaxslarga taalukli bulgan kuyidagi xolatlar aniklanish lozim.

1. Jinoyatning ob'ekti, etkazilgan zararning mikdori va xususiyati, jabrlanuvchi shaxsga ta'lukli bulgan xususiyatlar;

2. Jinoyat sodir etilgan, vakt, joy, usul, JKda kursatilgan boshka xolatlar, kilmish va uning okibati urtasidagi bogliklik;

3. Ayblanuvchi, maxkumning shaxsini tasdiklovchi xolatlar.

Jinoyat kilgandan keyin ruxiy kasallikka duchor bulib kolgan shaxsning jinoyat ishi buyicha shaxsdan jinoyat sodir etgandan keyin yuzaga kelgan va jazo kullashning istisno etadigan keyin yuzaga kelgan va jazo kullashning istisno etuvchi ruxiy kasallik ekanligini isbotlash lozim.

Agar shax sakli rasolik xolatida jinoyat sodir etgan bulsa, tibbiy yusindagi majburlov chorasini kullash uchun sud jinoyatning protsessual kodeksining 82-moddasida nazarda tutilgan.

Agar shaxs jazoni utash vaktida ruxiy kasalga chalinganligi uchun jazodan ozod kilingan bulsa, uning sudlanganligi jazo xakikatdan utalgan kismidan xisoblanadi.

Uzbekiston Respublikasi jinoyat konuniga muvofik ijtimoiy xavfli kilmishni akli norasolik xolatida yoki xukm chikarulgunga kadar yoxud jazoni utash vaktida ruxiy kasallikka chalinganligi okibatida uz xarakatining axamiyatini anglamaslik va uz xarakatining boshkara olmaslik xolatida sodir etgan kilmishning xususiyatiga kura jamiyat uchun xavfli deb topilsa, sud tomonidan kuyidagi tibbiy yusindagi majburlov choralardan birini tayinlashi mumkin.

a)m) Konunning mazmuniga kura, agar shaxs ruxiy kasal xolatida kilmishni sodir etsada, lekin jamoat uchun xavfli va majburiy davolash uchun zarurat bulmasa, bunday xollarda sud ishini tuxtatishi va tibbiy yusindagi majburlov choralari kullanmaslik tugrisida ajrim chikarishi mumkin.

a) majburiy ambulatoriya kuzatuvida bulishi va ruxiy kasallik mutaxassida davolanish;

b) umumiy tartibli ruxiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish;

v) umumiy tartibli ruxiy kasalliklar shifoxonasida soglikni tiklash maxsus bulimida majburiy davolanish;

g) kuzatuv kuchaytirilgan ruxiy kasalliklar shifoxonasida yoki bulinmasida majburiy davolanish.

Shaxsning uz xarakatining axamiyatini anglamasligi va uz xarakatlarini boshkara olmaydigan darajada ruxiy kasalga chalinib kolganligini masalasini sud tomonidan Sud-psixatriya ekspertizasi xulosasiga asoslanib xal etiladi.

